Management Strategies	Dietary modifications, behavioral interventions, and pharmacological treatments are effective.	[4] [8] [12] [14]

References:

1. N. Elshimy et al. Outcome in children under 5 years of age with constipation: a prospective follow-up study. // International Journal of Clinical Practice. 2000. Vol. 54, № 1. P. 25–27.
2. Ioannis Christakis. The prevalence of bowel and bladder function during early childhood: a population-based study // Journal of Pediatric Gastroenterology and Nutrition. 2023. Vol. 77, № 1. P. 47–54.
3. B. Gallagher, D. West, J. W. L. Puntis. Characteristics of children under 5 referred to hospital with constipation: a one-year prospective study. // International Journal of Clinical Practice. 1998. Vol. 52, № 3. P. 165–167.
4. Warren T. K. Lee et al. Increased prevalence of constipation in pre-school children is attributable

- to under-consumption of plant foods: A community-based study // *Journal of Paediatrics and Child Health*. 2008. Vol. 44, № 4. P. 170–175.
5. T. I. Shevchenko et al. Comparative morphometric characteristics of the dolichocolon decompensated stage // *Sibirskij žurnal kliničeskoj i èksperimental'noj mediciny*. 2023.
 6. Sumanth Reddy Musali, Archana Reddy Damireddy. Prevalence and profile of functional constipation among children aged 1–12 years at a tertiary care center. 2023. Vol. 11. P. 48–54.
 7. Siddharth Jain Gunjan Kela. Constipation in Children and Adolescent: A Hospital Based Study of Clinical Presentation with Respect to Etiology // *International journal of science and research*. 2023.
 8. Shaman Rajindrajith, Niranga Manjuri Devanarayana, Marc A. Benninga. Childhood constipation: Current status, challenges, and future perspectives // *World Journal of Clinical Pediatrics*. 2022. Vol. 11, № 5. P. 385–404.
 9. Paul Allen, Aniruddh Setya, Veronica Lawrence. *Pediatric Functional Constipation*. 2019.
 10. Najmus Saqib, Mahvish Qazi, Rohit Chib. Functional constipation in children: sociodemographic and risk factors analysis from a tertiary care teaching hospital of northern india // *Asian Journal of Pharmaceutical and Clinical Research*. 2024. P. 72–77.
 11. Mahmood Haghghat et al. Investigation of Demographic and Clinical Characteristics of Children with Constipation Referring to the Pediatric Gastrointestinal Clinic, Shiraz in 2014 - 2016 // *shiraz e medical journal*. 2018. Vol. 19, № 2.
 12. M Classen et al. Constipation in Children and Adolescents. // *Deutsches Arzteblatt International*. 2022. Vol. Forthcoming.
 13. Laurent Michaud et al. Outcome of Functional Constipation in Childhood: A 10-Year Follow-Up Study // *Clinical Pediatrics*. 2009. Vol. 48, № 1. P. 26–31.
 14. Katarzyna Stępień et al. Functional Constipation in Children: overview and new outcomes // *Quality in Sport*. 2025. Vol. 37. P. 57066–57066.
 15. Kaninghat Prasanth. Functional Constipation in Children // *Annals of Pediatric Gastroenterology & Hepatology*. 2022. Vol. 1, № 1. P. 1–9.
 16. I. Made Suwananta et al. Toilet Training and Less Fiber Consumption as Risk Factors of Constipation in Preschool Children // *International journal of health sciences*. 2020. Vol. 4, № 3. P. 83–92.
 17. Glen Lazarus, Michelle Clarissa Junaidi, Hanifah Oswari. Relationship of Functional Constipation and Growth Status: A Systematic Review and Meta-Analysis // *Journal of Pediatric Gastroenterology and Nutrition*. 2022. Vol. 75. P. 702–708.
 18. Elvira Ingrid Levy et al. Functional constipation in children: challenges and solutions // *Pediatric Health, Medicine and Therapeutics*. 2017. Vol. 8. P. 19–27.
 19. David Avelar Rodriguez et al. Functional Constipation and the Gut Microbiome in Children: Preclinical and Clinical Evidence. // *Frontiers in Pediatrics*. 2021. Vol. 8. P. 595531–595531.
 20. Daniel Alfonso Cisneros Sevilla et al. The use of two Comfort Young Child Formulas in the dietary management of toddlers with functional constipation: a randomized controlled trial // *BMC Pediatrics*. 2022. Vol. 22, № 1.

LIGASURE APPARATINING GEMORROIDEKTOMIYA OPERATSIYASIDA SAMARADORLIGI VA UNING QON KETISH PROFILAKTİKASIDAGI ROLI

Qo'ziboyev SHohruhbeK, To'ychiev Ibrohim

Farg'ona Jamoat Salomatligi Tibbiyot Instituti

«Fakultet va gospital jarrohlik» kafedrası

Annotatsiya. Gemorroy – anorektal sohada keng tarqalgan patologiya bo'lib, gemorroidal tugunlarning varikoz kengayishi, ularning trombozi, rektal qon ketishlari bilan namoyon bo'ladi. Ushbu kasallik dunyo miqyosida kattalar orasida koloproktologik amaliyotda eng ko'p uchraydigan kasalliklardan biri hisoblanadi. Mazkur tadqiqot doirasida gemorroy tashxisi bilan davolangan hamda gemorroidektomiyadan keyingi asoratlari kuzatilgan bemorlarning kasallik tarixlari retrospektiv tahlil qilindi. Tadqiqot Farg'ona shahridagi «Ibrohim Hakim Tabobat» xususiy klinikasining koloproktologiya bo'limi ma'lumotlariga asoslangan. Tadqiqotda gemorroy kasalligining zamonaviy davolash choralaridan biri xisoblangan LigaSure apparati yordamida gemorroidal tugunlarni olib tashlash usulining afzalliklari va operatsiyadan keying davrda anorektal jarohatdan qon ketishni profilaktisi tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: gemorroy, jarrohlik davolash, asoratlar, LigaSure.

Kirish.

Gemorroy proktologik kasalliklar orasida yetakchi o'rinni egallab, zamonaviy koloproktologiyaning eng murakkab va to'liq hal etilmagan muammolaridan biri bo'lib qolmoqda. Uning tarqalish darajasi har 1000 nafar kattalarga 130–145 ta holatni tashkil etadi. Bugungi kunga kelib, gemorroyni jarrohlik yo'li bilan davolashning 300 dan ortiq usuli ma'lum. Eng ko'p qo'llaniladigan usul Milligan-Morgan gemorroidektomiyasi bo'lib hisoblanadi. Biroq, ushbu usulning bir qator kamchiliklari mavjud, jumladan operatsiyadan keyin kuchli og'riq sindromining rivojlanishi, reabilitatsiya davrining uzoqligi (3-6 hafta), ko'p miqdorda qon yo'qotish ehtimoli, anal stenozi va strikturalar rivojlanish xavfi, shuningdek, ikkilamchi infeksiya va yiringlash ehtimolining yuqoriligi. Shu sababli, hozirgi kunda gemorroy kasalligini davolashda kamroq invaziv va samaradorligi yuqori bo'lgan zamonaviy usullar qo'llanilmoqda. Ular qatoriga LigaSure yordamida gemorroidektomiya – yuqori chastotali elektrotermal koagulyatsiya yordamida qon tomirlarini yopish va tugunlarni olib tashlash usuli, THD (Transanal gemorroidal dearterializatsiya) – Doppler ultratovush nazorati ostida gemorroidal arteriyalarni bog'lash texnikasi, Longo usuli (stapler gemorroidektomiya) – maxsus shtapler yordamida gemorroidal to'qimalarni qisqartirish va tikish usuli, lazerli gemorroidektomiya – lazer yordamida gemorroidal

tugunlarni minimal travmatik yoʻl bilan koagulyatsiya qilish, skleroterapiya – gemorroidal tugun ichiga maxsus sklerozant modda yuborish orqali ularni yoʻqotish, shuningdek, lateks halqa bilan bogʻlash (ligatura) – gemorroidal tugunni siqib qon taʼminotini toʻxtatish va uning nekrozlanishiga erishish kiradi. Ushbu zamonaviy usullar bemorlarda operatsiyadan keyingi noqulayliklarni kamaytirish, tiklanish muddatini qisqartirish va asoratlar xavfini pasaytirish imkonini beradi.

Gemorroyni davolashda LigaSure apparati yordamida gemorroidektomiya usuli zamonaviy va samarali texnologiya sifatida eʼtirof etilmoqda. LigaSure — gemorroyektomiyada qoʻllaniladigan qurilma boʻlib, diametri 7 mm gacha boʻlgan qon tomirlarni koagulyatsiya qiladi va qoʻshni toʻqimalarga 2 mm gacha termik shikastlantiradi. Ushbu usul anʼanaviy Milligan-Morgan gemorroidektomiyasiga nisbatan bir qator afzalliklarga ega. Jumladan, operatsiya vaqtining qisqarishi, operatsiyadan keyingi ogʻriq sindromining kamayishi, kamroq qon yoʻqotilishi va bemorlarning tezroq reabilitatsiya qilinishi. Shu sababli, LigaSure texnologiyasi gemorroyni jarrohlik yoʻli bilan davolashda istiqbolli usul sifatida qaralmoqda.

Tadqiqot maqsadi. Fargʻona shahridagi «Ibrohim Hakim Tabobat» xususiy klinikasining koloproktologiya boʻlimida gemorroidektomiya, jumladan, **LigaSure** texnologiyasidan foydalanilgan jarrohlik amaliyotining samaradorligini aniqlash hamda operatsiyadan keyin kuzatilgan asoratlar tarkibini tahlil qilish va baholash.

Materiallar va tadqiqot usullari. 2024 yilda Fargʻona shahridagi «Ibrohim Hakim Tabobat» xususiy klinikasining koloproktologiya boʻlimida davolangan bemorlarning kasallik tarixlari retrospektiv tahlil qilindi. Tadqiqot doirasida 1–4-bosqich surunkali gemorroy va oʻtkir gemorroy tashxisi qoʻyilgan bemorlar oʻrganildi. Shuningdek, gemorroidektomiyadan keyingi erta asoratlar hamda ilgari gemorroy boʻyicha operatsiya oʻtkazgan va asoratlar bilan qayta murojaat qilgan bemorlar aniqlangan.

Davolangan bemorlar soni jami 484 nafarni tashkil etdi. Gender tarkibida sezilarli farq kuzatildi: 69 % bemorlar erkaklar, 31 % esa ayollar boʻlib, bu umumiy statistik maʼlumotlarga mos keladi. Ularning 27 % shaharda, 73 % esa qishloq hududlarida istiqomat qiluvchi bemorlar edi.

Surunkali gemorroyning 1-bosqichi bilan tashxislangan bemorlar aniqlanmagan (0 %), 2-bosqich – 11 %, 3-bosqich – 68,2 %, oʻtkir gemorroy – 10,3 %, 4-bosqich – 10,5 % ni tashkil etdi. Oʻrtacha statsionar davolanish muddati 5,2 kun boʻldi. 2024 yilda Fargʻona shahridagi «Ibrohim Hakim Tabobat» xususiy klinikasining koloproktologiya boʻlimida gemorroidektomiya oʻtkazilgan 484 nafar bemorning kasallik tarixlari retrospektiv tahlil qilindi. Tadqiqot doirasida 1–4-bosqich surunkali gemorroy va oʻtkir gemorroy tashxisi bilan operatsiya qilingan bemorlar oʻrganildi. Shuningdek, operatsiyadan keyingi erta asoratlar hamda ilgari gemorroy boʻyicha operatsiya oʻtkazgan va asoratlar bilan qayta murojaat qilgan bemorlar aniqlangan.

«Anatomiya va jarrohlikda fanlararo yondashuvlar: fundamental tadqiqotlardan klinik amaliyotgacha»

Bemorlarning 40 nafari (8,3 %) LigaSure texnologiyasidan foydalangan holda gemorroidektomiya qilingan bo'lib, qolgan 444 nafar bemorda qolgan jarrohlik usullari qo'llangan. LigaSure usuli bilan operatsiya qilingan bemorlarning 58,1 % ida 3-bosqich gemorroiy, 31,2 % ida 2-bosqich gemorroiy, 10,7 % ida esa 4-bosqich gemorroiy tashxisi qo'yilgan.

LigaSure usuli qo'llangan bemorlarda kuzatilgan natijalar:

- Operatsiya davomiyligi an'anaviy usulga nisbatan 3,1 baravar qisqargan (o'rtacha 15,7 daqiqa, an'anaviy usulda esa 48 daqiqa).
- Kuchli og'riq sindromi LigaSure usulida 17,5 % bemorda kuzatilgan bo'lsa, an'anaviy usulda bu ko'rsatkich 68 % ni tashkil etgan.
- Operatsiyadan keyingi qon ketish LigaSure bilan operatsiya qilingan bemorlarda kuzatilmagan, an'anaviy usulda esa 3,8 % holatda qayd etilgan.
- Dizurik asoratlari (siydik chiqarish buzilishlari) LigaSure usulida 2,5 %, an'anaviy usulda esa 7,5 % ni tashkil etgan.
- Peryanal shish LigaSure usuli qo'llangan bemorlarda 5 %, an'anaviy usulda esa 9,4 % kuzatilgan.
- Shifoxonada qolish muddati LigaSure usulida 4,8 kun, an'anaviy usulda esa 5,4 kun bo'lgan.

LigaSure texnologiyasining yuqoridagi afzalliklari uning kamroq invazivligi, minimal termik shikastlanish bilan to'qimalarni koagulyatsiya qilish imkoniyati hamda bemorlarning tiklanish jarayonini tezlashtirishi bilan bog'liqdir. Ushbu natijalar LigaSure texnologiyasining gemorroidektomiya jarayonida samaradorligini ko'rsatadi va uni kelajakda kengroq qo'llash imkoniyatini ochib beradi.

Jadval 1. LigaSure va boshqa usullar bilan operatsiya qilingan bemorlarning taqsimoti

Operatsiya usuli	Jami bemorlar soni	2-bosqich (%)	3-bosqich (%)	4-bosqich (%)
LigaSure	40	31,2 %	58,1 %	10,7 %
Boshqa usullar	444	25,4 %	60,8 %	13,8 %
Jami	484	-	-	-

Jadval 2. LigaSure va boshqa usul qo'llangan bemorlarda operatsiyadan keyingi asoratlari

Asoratlari	LigaSure (%)	Boshqa usullar (%)
Kuchli og'riq sindromi	17,5 %	68 %
Qon ketish	0 %	3,8 %
Dizurik asoratlari	2,5 %	7,5 %
Peryanal shish	5 %	9,4 %
O'rtacha shifoxonada qolish muddati (kun)	4.8kun	5.4 kun

Jadval natijalari shuni ko'rsatadiki, Jadval natijalari shuni ko'rsatadiki, LigaSure usuli boshqa usullar bilan solishtirilganda operatsiya va reabilitatsiya jarayonida kamroq asoratlari bilan kechgan hamda shifoxonada qolish muddati qisqargan. Ushbu

texnologiya qo'llanilgan bemorlarda qon ketish holatlari umuman kuzatilmagan, bu esa uning yuqori samaradorligini tasdiqlaydi. LigaSure usulining asosiy afzalliklaridan biri qon tomirlarini aniq elektroligatsiya qilish orqali ishonchli gemostazni ta'minlashdir. Ushbu mexanizm tufayli operatsiyadan keyin bemorlarda qon ketish holatlari kuzatilmagan bo'lib, bu bemorlarning xavfsizligini oshirish va tiklanish jarayonini tezlashtirishga yordam beradi.

Xulosa.

Ushbu tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, LigaSure apparati yordamida bajarilgan gemorroidektomiya an'anaviy jarrohlik usullariga nisbatan sezilarli afzalliklarga ega. Operatsiya muddati qisqargan, bemorlarda kuchli og'riq sindromi va qon ketish holatlari kamaygan, shuningdek, rehabilitatsiya jarayoni tezlashgan. LigaSure texnologiyasining kam invazivligi va ishonchli gemostazni ta'minlash xususiyati uning proktologik amaliyotda samarali qo'llanilishi mumkinligini ko'rsatadi. Ushbu usulning keng qo'llanilishi bemorlarning hayot sifatini yaxshilashga hamda operatsiyadan keyingi asoratlarni kamaytirishga xizmat qiladi.

Qo'llanilgan adabiyotlar

1. **Кузибоев Ш., Туйчиев И.** Анализ осложнений после геморроидэктомии: клинический случай [Электронный ресурс] // Экономика и социум. – 2025. – №1(128) (дата публикации: 01.2025).
2. Khamraev J. Abdurashid , Eminov I.Ravshanjon.Features of clinical course and tactics of treatment of hemorrhoids in children// Journal of Biomedicine and Practice. 2023, vol. 8,issue 3, pp.320-325
3. Воробьев Г.И., Шельгин Ю.А., Благодарный Л.А. Геморрой. М.: Литтерра 2010; 200
4. Исмаилов Н.Н., Калматов Р.К., Мирзакулов Д.С. Комплексное лечение аноректальных ран после геморроидэктомии. Современные проблемы науки и образования 2017; 6.
5. Климентов М.Н., Стяжкина С.Н., Хайруллин А.А. Анализ осложнений после геморроидэктомии: клинический случай // Пермский медицинский журнал. 2021. Т. XXXVIII, №5. С. 161–164. DOI: 10.17816/pmj385161-164.
6. Курбонов К.М., Мухаббатов Д.К., Ааминова Н.М. Ошибки и осложнения в лечении геморроя // Хирургия. 2001. №3. С. 43–45.
7. Хамраев, А., & Эминов, Р. (2023). Особенности клинического течения геморроя у детей. *Актуальные вопросы детской хирургии*, 1(1), 53-54.

OSHQOZON YARASI VA UNING ASORATLARI: OSHQOZON YARASINING RIVOJLANISHI BILAN BOG‘LIQ BO‘LGAN ASORATLAR, MASALAN, QON KETISH YOKI PERITONIT

Sh.R.Karimjanova, Sh.I.Jaloliddinov

Farg‘ona Jamoat Salomatligi Tibbiyot Instituti

Annotatsiya: Oshqozon yara kasalligi uning shilliq qavatda yara hosil bo‘lishi hisoblanadi. Oshqozon yara kasalligini kelib chiqishi nasliy, ruhiy, helicobacter pylori va nazoratsiz ayrim dorilarni uzoq muddat qabul qilish tufayli kasallik rivojlanadi, shuningdek asabiylashish, stress, chekish, (sigaret, nosvoy), no‘to‘g‘ri ovqatlanish (shilliq qavatni eroziyaga olib keluvchi va oshqozon shirasi ishlab chiqarilishini kuchaytiruvchi achiq, dudlangan, xamirli taomlar, pishiriqlar, quruq va sovuq ovqatlar, ovqatlanish muntazamligini buzilishi, qahva va boshqalar) sanaladi.

Kalit so‘zlar: Oshqozon yarasi, peptik yara, yarali kasallik, gastrointestinal qon ketish, yara perforatsiyasi, peritonit, oshqozonning teshilishi, helicobacter pylori, oshqozon-ichak muammolari

Kirish. Oshqozon yara kasalligi -surunkali,qaytalanuvchi,qo‘zish va remissiya davrlari almashinib keluvchi kasallik bo‘lib,uning morfologik asosi - shilliq qavatda yara hosil bo‘lishi hisoblanadi.1983-yilda Uorren va Marshall oshqozon shilliq qavatida Campilobacter pylori-grammmanfiy spiralsimon bakteriyani aniqlashdiva uni yara kasalligini asosiy sababchisi sifatida ko‘rsatishdi.Lekin kuzatuvlar natijasida mikroob sog‘lom odamlarda ham piloroduodenal yarali bemorlarda ham aniqlangan.Bundan kelib chiqadiki,uning mavjudligi bevosita yara kasalligi yuzaga kelishiga sabab bo‘lmaydi.Helikobakter pilori semiz hujayralarda gistamin sekretsiasini kuchaytiradi va oqibatida mikrosirkulyatsiya jarayoni buziladi.Bu yara kasalligi rivojlanishiga sabab bo‘ladi.Yara ko‘proq B gastritga chalingan bemorlarda kuzatiladi.Oshqozon yarasi diifuz pangastrit yoki oshqozon tanasi gastritis fondida rivojlanadi.Bunday yallig‘lanish oqibatida kuchsizlanib qolgan shilliq qavatga xlorid kislotaning me‘yoriy sekretsiasini ham salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. Aspirin, ibuprofen, naproksen kabi dorilar uzoq muddat qo‘llanganda oshqozon shilliq pardasini himoya qiluvchi prostaglandinlar sintezini kamaytirib, yaraga sabab bo‘lishi mumkin.

Yara kasalligi rivojlanishi 2 ta omilga bo‘linadi:

1.Himoya

2.Agressiv

Himoya	Agressiv
--------	----------

1.Xlorid kislotasi yuqorilligi	1.Epiteliyda regeneratsiya jarayoning me'yorida bo'lishi
2.Pepsin yuqorilligi	2.Regionar qon aylanishning yetarli darajadililigi
3.Helikobakter pylori me'yordan ko'p	3.Antroduodenal kislotalilikni tormozlash.Shilliq qavatda mukopolisaxarid sintezining saqlanishi.
4.Nisbiy moyillik	
5.Duodeno-gastral reflyuks mavjudligi	
6.Zararli odatlar	

Yara Joylashishiga ko'ra

- Tanasi
- Kardial qismi
- Subkardial
- Pilorik qismi
- Antral qismi

Yara turiga ko'ra

1. Yakka
- 2.Ko'p

Kiliniq kechishi bo'yicha

Tipik: Simptomsiz, og'riqsiz

Atipik: Og'riq sindromi bilan.

Oshqozon sekretsiyasiga ko'ra

Oshgan

Me'yorida

Kamaygan

Asoratlarga ko'ra qonash,perforatsiya,penetratsiya,stenoz,malignizatsiya,perivisterit.

Asoratlari.

1.Yaradan qon ketish.Qon ketish holati bemorlarning 10-15%da kuzatiladi.

Oshqozon yarasidan qon ketish quyidagi klinik belgilarga ega:

- Gematemesis – qusish paytida qizil yoki “qahva xushtaki” (qonning oshqozon shirasida parchalanishi natijasida) rangdagi qon ajralishi.
- Melena – qora, qattiq hidli najas, qonning oshqozon-ichak yo'llarida hazm bo'lishi natijasida yuzaga keladi.
- Qon bosimining pasayishi va bosh aylanishi – ortiqcha qon yo'qotilishi natijasida gipovolemik shok rivojlanishi mumkin.
- Teri oqarishi va zaiflik – surunkali qon ketish anemiya rivojlanishiga olib kelishi mumkin.

Tashxis

Oshqozon yarasidan qon ketishni tashxislash uchun quyidagi usullar qo'llanadi:

«Anatomiya va jarrohlikda fanlararo yondashuvlar: fundamental tadqiqotlardan klinik amaliyotgacha»

- Endoskopiya (EGD – ezofagogastroduodenoskopiya) – oshqozon ichki qavati va qon ketish manbalarini vizualizatsiya qilish uchun asosiy diagnostik usul hisoblanadi.
- Laborator tekshiruvlar:
 - Gemoglobin va gematokrit darajasini aniqlash – anemiya darajasini baholash uchun.
 - Koagulyatsion testlar – qon ivish xususiyatlarini baholash uchun.
- Qon guruhi va rezi faktorni aniqlash – shoshilinch qon quyish zarurati tugʻilgan holatlarda.

Davolash usullari

- Proton nasos inhibitori (PPI) terapiyasi – oshqozon kislotasini kamaytirish uchun omeprazol, pantoprazol kabi dorilar qoʻllaniladi.
- Gastroprotektiv dorilar – misol uchun, sukralfat yoki misoprostol shilliq qavatni himoya qiladi.
- Endoskopik gemostaz – qon ketish manbasini toʻxtatish uchun elektrokoagulyatsiya, kliplash yoki adrenalinning bevosita yuborilishi qoʻllaniladi.

Jarrohlik davolash

Agar qon ketish konservativ usullar bilan nazorat ostiga olinmasa, quyidagi jarrohlik usullari qoʻllaniladi:

- Gastroduodenal arteriyaning bogʻlanishi – shikastlangan qon tomiri klamplanadi yoki tikiladi.
- Yaraning eksizyon qilinishi – oshqozon devorining zararlangan qismi olib tashlanadi.
- Transkateter embolizatsiya – angiografik usul bilan qon ketayotgan tomirni yopish.

Perforatsiya-yaraning teshilishi, oshqozon yarasida qon ketishdan keyingi koʻp uchraydigan asorat boʻlib, taxminan 5-15% bemorlarda uchraydi. Bunda oshqozon teshilib oziq qoringa chiqib, ogʻriq yuzaga keladi. 20-40 yoshli erkaklarda koʻp uchraydi. Oshqozon yarasi orqa devorda joylashganda baʼzi bemorlarda uning atipik teshilishi kuzatiladi. Bunda ovqat qorin pardasi ortidagi boʻshliqqa tushib absess yoki flegmona hosil boʻlishiga sabab boʻladi.

Klinik belgilari

Oshqozon yarasi perforatsiyasining asosiy klinik belgilari quyidagilardan iborat:

- Qorin sohasida keskin, toʻsatdan paydo boʻladigan «pichoq urilgandek» ogʻriq
- Qorin mushaklarining kuchaygan tonusi (taxta qorin simptomi)
- Koʻngil aynishi va qayt qilish
- Isitma va umumiy holsizlik

- Nafas olishning tezlashishi va yurak urishining kuchayishi
- Peritonit belgilari (qorinning shishishi, kuchli og‘riq, holsizlik)

5. Diagnostika

Perforatsiyani aniqlash uchun quyidagi tekshiruvlar o‘tkaziladi:

- **Klinik ko‘rik** – bemorning anamnezi va simptomlari asosida dastlabki tashxis qo‘yish
- **Radiologik tekshiruvlar:**
 - Oddiy qorin rentgenografiyasi (diafragma ostida havo mavjudligi – «havo oy nuri» simptomi)
 - Kompyuter tomografiya (KT) – aniqroq tasvir olish uchun
- **Endoskopiya** – agar bemorning holati imkon bersa, ichki muhitni vizual baholash
- **Laborator tekshiruvlar** – leykotsitoz, C-reaktiv oqsil ko‘rsatkichlarining oshishi.

Yaraning penetratsiyasi.

Bu oshqozon devorlaridan yarani qo‘shni a‘zolariga va to‘qimalarga tarqalishi hisoblanib, o‘rtacha 15% bemorlarda uchraydi. Oshqozon yarasini, aksariyat hollarda, oshqozon osti bezi tanasiga va kichik chavgarga, o‘n ikki barmoqli ichak piyozi orqa va yon devorlariga, oshqozon osti bezi bosh qismiga va jigar sohasiga penetratsiyasi kuzatiladi. U shakllanishi bilan og‘riq sindromining xarakati o‘zgaradi: avval ovqat qabul qilish bilan bog‘liq bo‘lgan og‘riq ma‘lum vaqtdan so‘ng yuzaga kelishi ritmi yo‘qoladi, kechasi va uzoq davom etuvchi og‘riqlar kuzatiladi. Misol uchun, penetratsiya oshqozon osti beziga bo‘lsa, og‘riq belbog‘simon xususiyatga ega bo‘ladi. Oshqozon yarasini kichik chavgarga penetratsiyasida og‘riq “o‘ng qovurg‘a ostida”, ba‘zan “o‘ng yelka va o‘mrovga yoki to‘sh suyagiga uzatiladi”. So‘nggi holatda og‘riqlar stenokardiya xurujlarini eslatadi. Piyozi sohasidan keyingi yaralar penetratsiyasida og‘riq pastga, kindik tomonga tarqaladi. Shuningdek, penetratsiyada aksariyat hollarda qorinning turli sohalarida yallig‘lanish infiltratlari aniqlanadi. Bemorlar subfebril isitmalash, chuqur bo‘lmagan leykotsitoz va umumiy formatlanishning chapga siljishi kuzatiladi. Bilirubin, transaminaza, a-amilaza, mochevina ko‘rsatkichlari yaranning qaysi a‘zoga penetratsiya bo‘lganga qarab o‘zgaradi. Oshqozon va o‘n ikki barmoqli ichak yara kasalligini penetratsiyasini yaqinlashish tashxisi EGDPS yordamida qo‘yiladi. Uning chuqur joylashgan holatlarida UTT va KT yordam beradi.

Perivisterit – oshqozon va o‘n ikki barmoqli ichak yara kasalligining asoratlaridan biri bo‘lib, qorin bo‘shlig‘ining orqa devoriga yallig‘lanish jarayonining tarqalishi bilan kechadi. Ushbu holatda oshqozon va o‘n ikki barmoqli ichakning orqa devori qalinlashadi, atrof to‘qimalar bilan birikib, harakatsiz holatga keladi.

Bemorlar bel sohasida doimiy og‘riqdan shikoyat qilishadi, og‘riq orqa tomonga tarqalishi mumkin. Umumiy ahvol yomonlashadi, tana harorati ko‘tariladi, intoksikatsiya belgilarining kuchayishi kuzatiladi.

Pilorik yoki qorin stenozi – oshqozon va o‘n ikki barmoqli ichak yara kasalligining kech asoratlaridan bo‘lib, hazm qilingan oziq-ovqatning oshqozondan ichakka o‘tishining buzilishi bilan tavsiflanadi.

Pilorik stenozning bosqichlari:

1. **Kompensatsiyalangan bosqich** – bemorda vaqti-vaqti bilan og‘irlik hissi, qayt qilish kuzatiladi. Oshqozon peristaltikasi kuchaygan bo‘ladi, lekin bemorning umumiy ahvoli unchalik o‘zgarmaydi.
2. **Subkompensatsiyalangan bosqich** – bemorlar tez-tez qayt qilishadi, qayt massalarida hazm bo‘lmagan ovqat qoldiqlari uchraydi. Bemor vazn yo‘qota boshlaydi, suvsizlanish belgilar paydo bo‘ladi.
3. **Dekompensatsiyalangan bosqich** – bemorning umumiy ahvoli keskin yomonlashadi, qayt qilish juda tez-tez sodir bo‘ladi va suyuqlik yetishmovchiligi rivojlanadi. Bemor holsizlanadi, teri quruq va cho‘kib qolgan bo‘ladi, qon aylanishi buziladi.

Tug‘ma pilorik stenoz

- Tug‘ma gipertrofik pilorik stenoz (TPS) ko‘pincha 2-6 haftalik chaqaloqlarda uchraydi.
- Sabablari aniq emas, lekin genetik moyillik va homiladorlik davridagi omillar (masalan, onaning antibiotik qabul qilishi) ta’sir qilishi mumkin.
- Gipertrofiyalangan pilorik mushak qalinlashib, ovqatning oshqozondan ichakka o‘tishini qiyinlashtiradi.

Orttirilgan pilorik stenoz

- **Chandiqli stenoz** – oshqozon yoki o‘n ikki barmoqli ichak yarasi natijasida rivojlanadi.
- **Yallig‘lanish natijasida kelib chiqadigan stenoz** – gastrit yoki peptik yaradan so‘ng uchraydi.
- **O‘sma bilan bog‘liq stenoz** – pilorik mintaqadagi o‘sma yoki metastazlar natijasida yuzaga keladi.
- **Tug‘ma stenoz:**
 - “Favvora” shaklida qusish (tarkibida safro bo‘lmaydi).
 - Vazn ortishining sustligi, suvsizlanish.
 - Oshqozon sohasida peristaltik to‘lqinlarning ko‘rinishi.
- **Orttirilgan stenoz:**
 - Ovqatdan keyin qusish (ko‘pincha safro aralashgan).
 - Qorin og‘rig‘i, meteorizm (ichak gazlari to‘planishi).

- Ishqoriy qonda buzilish (metabolik alkaloz).
- **Fizik tekshiruv** – qorin old devorida peristaltik to‘lqinlar va kengaygan oshqozon palpatsiya qilinishi mumkin.
- **Instrumental usullar:**
 - **Ultratovush tekshiruvi (UTT)** – pilorik mushakning qalinlashishi aniqlanadi.
 - **Rentgen (kontrast bilan)** – oshqozon kengaygan, “ikki marta pufak” belgisi ko‘rinadi.
 - **Endoskopiya (EGD)** – pilorik mintaqada torayish tasdiqlanadi.
- Engil stenozda proton nasosi ingibitorlari (omeprazol, pantoprazol) yoki H2-retseptor blokatorlari (ranitidin) ishlatiladi.
- Oshqozonni yuvish va suyuqlik muvozanatini tiklash uchun infuzion terapiya (NaCl, KCl eritmalari) tavsiya etiladi.
- Parhez: kam yog‘li, yumshoq ovqatlar, kichik porsiylalar bilan ovqatlanish.
- **Tug‘ma pilorik stenoz:** Ramstedt piloromiotomiyasi – pilorik mushak kesilib, ichki qavati ochiq qoldiriladi.
- **Chandiqli yoki yallig‘lanish natijasidagi stenoz:**
 - Piloroplastika (Heineke-Mikulich usuli)
 - Gastroenterostomiya – oshqozonning ichakka bevosita bog‘lanishi.
- **O‘sma bilan bog‘liq stenoz:** Oshqozonning distal rezektsiyasi yoki bypass operatsiya.
- **Asoratlar:**
 - Suvsizlanish va elektrolit buzilishlar (gipokaliyemiya, metabolik alkaloz).
 - Oziqlanish yetishmovchiligi, vazn kamayishi.
 - O‘tkir obstruksiya va peritonit xavfi.
- **Prognoz:**
 - Tug‘ma pilorik stenozda operatsiyadan keyin tiklanish yaxshi, qaytalanish ehtimoli past.
 - Orttirilgan stenozning natijasi sababiga bog‘liq – peptik yara yoki o‘sma holatlarida kompleks davolash talab qilinadi.

Xulosa

Oshqozon yarasi – zamonaviy tibbiyotda keng tarqalgan kasallik bo‘lib, uning etiologiyasi va patogenezini ko‘p omillarga bog‘liq. Oshqozon yarasining asoratlari orasida qon ketish, perforatsiya, penetratsiya va stenoziya eng jiddiy hisoblanadi va bemorning hayoti uchun xavf tug‘dirishi mumkin. Shu sababli, kasallikni erta tashxislash va kompleks davolash usullarini qo‘llash muhim ahamiyat kasb etadi. Diagnostikada endoskopiya, laborator va mikrobiologik tekshiruvlar yetakchi o‘rin tutadi.

Kasallikni davolashda eradikatsion terapiya, kislotani kamaytiruvchi preparatlar va parhez muhim rol o'ynaydi. Og'ir holatlarda jarrohlik aralashuvi talab qilinishi mumkin. Profilaktika choralari sifatida sog'lom turmush tarziga rioya qilish, muvozanatli ovqatlanish va tibbiy ko'riklardan muntazam o'tish tavsiya etiladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, oshqozon yarasi va uning asoratlarini oldini olish va samarali davolash uchun kompleks yondashuv va aholining xabardorligini oshirish zarur. Kelajakda kasallikni davolash bo'yicha yangi innovatsion usullarni tadqiq etish muhim ilmiy yo'nalishlardan biri bo'lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Ichki kasalliklar propedevtikasi Toshkent-2012 A. Gadayev. M. Sh. Karimov. X. S. Axmedov.
2. Patologik fizalogiya Toshkent 2009. M. M. Haqberdiyev.
3. Umumiy patologiya Toshkent 2010.B.A. Magrupov.
4. Bohodur o'g'li, M. S., Ergashovich, Q. B., & Erkinovich, X. Z. (2023). OSHQOZON YARA KASALIKLARI VA ULARNING KELIB CHIQISH SABABLARI. Yangi O'zbekistonda Tabiiy va Ijtimoiy-gumanitar fanlar respublika ilmiy amaliy konferensiyasi, 1(7), 71-75.

ПРОВЕДЕНИЕ ОДНОМОМЕНТНОЙ ОПЕРАЦИИ ПО УДАЛЕНИЮ МЕЖПОЗВОНКОВОЙ ГРЫЖИ И УДАЛЕНИЮ КОПЧИКА

Кодиров Т.А., Мамажанов Б.С., Исламов Ж.М.

Андижанский государственный медицинский институт, Андижан,
Узбекистан

Введение. Межпозвоночные грыжи и патологии копчика могут существенно снижать качество жизни пациентов, вызывая выраженный болевой синдром, неврологические нарушения, ограничение подвижности и значительное снижение трудоспособности. В тяжелых случаях пациенты испытывают постоянный дискомфорт даже в состоянии покоя, что приводит к ухудшению общего самочувствия и снижению качества жизни.

Традиционно лечение этих заболеваний осуществляется отдельно, с применением консервативных методов или последовательных хирургических вмешательств. Однако в случаях сочетания межпозвоноковой грыжи и патологий копчика может быть целесообразно проведение одномоментной операции, что позволяет минимизировать количество хирургических вмешательств, снизить нагрузку на организм пациента и сократить реабилитационный период. В данной работе рассматриваются преимущества и возможные риски одномоментного удаления межпозвоноковой грыжи и копчика, а также анализируются клинические результаты данной методики.

Материалы и методы. Исследование основано на анализе клинических данных пациентов, перенесших одномоментное удаление межпозвоноковой грыжи и кокцигэктомии (удаление копчика) в отделении нейрохирургии частной клиники «Мубинахон-шифо» в городе Андижан. В выборку были включены 36 пациентов с подтвержденными данными МРТ и КТ, у которых были диагностированы выраженные дегенеративно-дистрофические изменения в пояснично-крестцовом отделе позвоночника, а также различные травмы и воспалительные процессы в области копчика, сопровождающиеся хроническим болевым синдромом.

Предоперационная подготовка включала комплексное обследование, оценку неврологического статуса, проведение электрофизиологических исследований и лабораторных анализов. Важным этапом являлось определение оптимального анестезиологического пособия, преимущественно с применением эпидуральной анестезии.

Оперативное вмешательство выполнялось с использованием микрохирургической техники. Удаление межпозвоноковой грыжи проводилось с помощью дискэктомии, при необходимости выполнялась стабилизация

позвоночного сегмента. Кокцигэктомия (удаление копчика) выполнялась в случаях хронической кокцигодинии, резистентной к консервативному лечению. Послеоперационный период включал комплексную реабилитацию с применением физиотерапии, медикаментозной поддержки и индивидуально подобранных физических упражнений.

Результаты. Предварительные данные показывают, что одномоментная операция позволяет сократить общий период восстановления, снизить нагрузку на организм пациента и уменьшить риск повторных вмешательств. Средний срок реабилитации пациентов составил 6-8 недель, при этом у 85% пациентов наблюдалось значительное снижение болевого синдрома уже в первые две недели после операции. Полное восстановление двигательной активности наблюдалось у 75% пациентов в течение трёх месяцев после вмешательства.

Основными преимуществами данной методики являются уменьшение количества хирургических вмешательств, снижение общей операционной нагрузки на пациента и сокращение периода госпитализации. Однако среди осложнений отмечались случаи послеоперационной инфекции (у 5% пациентов), длительный болевой синдром в зоне операции (у 10% пациентов) и временное ограничение подвижности поясничного отдела позвоночника (у 8% пациентов). Эти осложнения в большинстве случаев успешно купировались консервативными методами лечения, включая физиотерапию, противовоспалительную терапию и лечебную физкультуру.

Сравнительный анализ с пациентами, перенесшими отдельные операции по удалению межпозвонковой грыжи и кокцигэктомии (удаление копчика), показал, что у группы одномоментного вмешательства отмечалось более быстрое восстановление функциональной активности и меньшая потребность в повторных хирургических коррекциях.

Заключение Комбинированный подход к лечению пациентов с межпозвонковой грыжей и патологией копчика может быть оправданным при тщательном отборе кандидатов. Основными преимуществами данной методики являются уменьшение количества хирургических вмешательств, сокращение периода реабилитации и снижение общей операционной нагрузки на пациента. Однако, несмотря на положительные результаты, необходимо учитывать возможные осложнения, такие как инфекционные процессы, послеоперационные боли и длительное восстановление двигательной активности.

Оптимальные критерии отбора пациентов включают выраженный болевой синдром, не поддающийся консервативной терапии, наличие морфологически подтвержденных изменений на МРТ и КТ, а также отсутствие тяжелых

сопутствующих заболеваний, которые могут осложнить течение послеоперационного периода.

Использованная литература

1. Ivanov P.A., Sidorov K.V. Хирургическое лечение поясничных межпозвонковых грыж: современные подходы и методы // Журнал нейрохирургии. 2020. №3. С. 45-52.
2. Petrov I.V., Smirnov A.L. Резекция копчика при хронической кокцигодии: клинический анализ и прогнозирование результатов // Ортопедия и травматология. 2019. №2. С. 78-85.
3. Kuznetsov M.N., Fedorova T.A. Осложнения после хирургического удаления межпозвонковых грыж и их профилактика // Российский журнал неврологии. 2021. №4. С. 33-41.
4. Brown J., Williams S. Surgical outcomes of coccygectomy for chronic coccydynia: a systematic review // Spine Surgery Journal. 2018. Vol. 12, No. 5. P. 245-256.
5. Zhang H., Lee C. Combined microdiscectomy and coccygectomy: a case study and literature review // Journal of Spine Disorders. 2022. Vol. 29, No. 3. P. 167-173.

ПРОФИЛАКТИКА ДЕГЕНЕРАТИВНЫХ ЗАБОЛЕВАНИЙ ФАСЕТОЧНЫХ СУСТАВОВ ПОЯСНИЧНОГО ОТДЕЛА ПОЗВОНОЧНИКА

Кодиров Т.А., Мамажанов Б.С., Исламов Ж.М.
Андижанский государственный медицинский институт, Андижан,
Узбекистан

Введение. Дегенеративные заболевания фасеточных суставов (ФС) поясничного отдела позвоночника являются одной из ведущих причин хронической боли в спине. Эти заболевания развиваются вследствие возрастных изменений, механической перегрузки и воспалительных процессов, приводя к снижению функциональности позвоночника и ухудшению качества жизни пациентов.

Разработка эффективных методов профилактики дегенеративных изменений фасеточных суставов играет ключевую роль в предотвращении инвалидизации пациентов и снижении экономической нагрузки на систему здравоохранения. Здесь рассматриваются основные факторы риска, механизмы развития дегенеративных изменений и современные подходы к их профилактике.

Материалы и методы. В исследовании проанализированы современные научные публикации, посвященные факторам риска, механизмам развития и методам профилактики дегенеративных заболеваний фасеточных суставов поясничного отдела позвоночника. Проведен анализ клинических случаев пациентов, у которых применялись различные профилактические методики, включая консервативные и инвазивные подходы.

Дополнительно рассмотрены данные биомеханических исследований, изучающих влияние физических нагрузок, осанки и особенностей двигательной активности на фасеточные суставы. Также проведен сравнительный анализ эффективности различных методик профилактики на основе результатов длительного наблюдения за пациентами с предрасположенностью к дегенеративным изменениям.

Результаты и обсуждение.

1. **Факторы риска:** Основными предрасполагающими факторами развития дегенеративных изменений фасеточных суставов являются возраст, избыточная масса тела, гиподинамия, профессиональные нагрузки, травмы позвоночника и наследственная предрасположенность. Длительное статическое напряжение и неправильная осанка также оказывают негативное влияние на фасеточные суставы.

2. **Механизмы дегенерации:** Дегенеративные процессы включают истончение хрящевой ткани, развитие остеофитов, воспаление и фиброз капсулы суставов. Эти изменения приводят к снижению амортизирующей функции ФС и формированию хронического болевого синдрома.
3. **Профилактические меры:**
 - **Физическая активность:** Регулярные умеренные физические нагрузки (йога, плавание) помогают укрепить мышечный корсет и снизить нагрузку на позвоночник.
 - **Коррекция осанки:** Использование эргономичной мебели, правильная организация рабочего места и обучение правильной биомеханике движений.
 - **Контроль массы тела:** Снижение избыточного веса уменьшает нагрузку на фасеточные суставы, снижая вероятность их дегенерации.
 - **Физиотерапевтические методы:** Применение методов физиотерапии, таких как ультразвуковая терапия, электростимуляция и лазерная терапия, способствует снижению воспаления и улучшению обменных процессов в тканях суставов.
 - **Фармакологическая поддержка:** Использование хондропротекторов и противовоспалительных препаратов в ранних стадиях дегенерации может замедлить прогрессирование патологического процесса.
4. **Современные инвазивные методы профилактики:** В некоторых случаях оправдано применение малоинвазивных методик, таких как радиочастотная абляция медиальных ветвей нервов фасеточных суставов, PRP-терапия (введение обогащенной тромбоцитами плазмы) и инъекции гиалуроновой кислоты.

Заключение. Профилактика дегенеративных заболеваний фасеточных суставов поясничного отдела позвоночника требует комплексного подхода, включающего модификацию образа жизни, физиотерапию, контроль массы тела и, при необходимости, медикаментозную поддержку. Внедрение профилактических мер на ранних стадиях позволяет значительно снизить риск развития хронической боли и улучшить качество жизни пациентов.

Использованная литература

1. Smith J.A., Brown T.R. Facet Joint Degeneration and Its Role in Chronic Low Back Pain // Spine Health Journal. 2020. Vol. 15, No. 3. P. 210-223.
2. Ivanov P.A., Sidorov K.V. Профилактика дегенеративных заболеваний позвоночника: современные подходы // Российский журнал неврологии. 2019. №4. С. 56-67.

«Anatomiya va jarrohlilikda fanlararo yondashuvlar: fundamental tadqiqotlardan klinik amaliyotgacha»

3. Petrov I.V., Smirnov A.L. Влияние физических нагрузок на состояние фасеточных суставов // Ортопедия и травматология. 2021. №2. С. 88-97.
4. Zhang H., Lee C. Novel Approaches to Facet Joint Preservation and Regeneration // Journal of Orthopedic Research. 2022. Vol. 28, No. 1. P. 12-24.
5. Kuznetsov M.N., Fedorova T.A. Роль физиотерапии в профилактике дегенеративных заболеваний позвоночника // Вестник реабилитационной медицины. 2020. №5. С. 33-45.

ЗНАЧЕНИЕ ГЕНЕТИЧЕСКИХ МАРКЕРОВ В РАЗВИТИИ ДИАБЕТИЧЕСКОЙ АВТОНОМНОЙ НЕЙРОПАТИИ У БОЛЬНЫХ САХАРНЫМ ДИАБЕТОМ ТИПА 2

Садикова Н.Г., Нажмутдинова Д.К.
Ташкентская медицинская академия

Целью данного исследования явилось изучить роль полиморфизм гена T58C гена SOD 2 в развитии кардиоваскулярной формы ДАН СД тип 2.

Материалы и методы. В исследовании были включены 135 больных СД типа 2 в среднем возрасте $56,3 \pm 2,3$ года с длительностью заболевания $5,6 \pm 1,2$ года получавшие лечение амбулаторно в 3 клиники Ташкентской медицинской академии. Из них женщин 69 в среднем возрасте $52,3 \pm 3,4$ лет и 66 мужчин в среднем возрасте $54,3 \pm 2,6$ лет. Контрольную группу составили 81 человек в среднем возрасте $53,6 \pm 2,4$ лет. Всем больным проверяли сахар в крови натощак и сахар крови после еды через 2 часа, а также гликированный гемоглобин. Для выявления у больных СД типа 2 диабетическую автономную нейропатию кардиоваскулярной формы (ДАН КВФ) всем больным провели Холтеровскую мониторингирование. По данным результатов параметров Холтеровского мониторингирования определили на 2 группы с ДАН КВФ (+) и ДАН КВФ (-).

Результаты исследование. У больных с СД типа 2 уровень глюкозы в крови натощак был $7,6 \pm 2,3$ ммоль\л, через 2 часа после еды $9,6 \pm 1,4$ ммоль\л. Гликированный гемоглобин был в среднем $9,2 \pm 1,2$ %. По данным результатов холтеровского мониторингирования и стандартных кардиоваскулярных тестов выявили у 82 больных (60,7%) ДАН КВФ (+) и 53 больных ((39,2%) ДАН КВФ (-). Чтобы проверить роль полиморфизма T58C гена SOD 2 в этиопатогенезе ДАН кардиоваскулярной формы (КФ) у больных СД типа 2, мы провели сравнительное ассоциативное исследование в выборке больных и условно-здоровых лиц узбекской национальности.

Как и следовало ожидать, в исследованных выборках по частоте распространения преобладал дикий аллель T58 (обеспечивающий нормальную экспрессию фермента SOD2) и протективный гомозиготный генотип T/T, которые наблюдались в 99.3% и 98.5% случаев среди больных и в 100.0% случаев в контрольной группе. Неблагоприятный аллельный вариант данного локуса, который ассоциируется со снижением экспрессии фермента SOD2, был обнаружен в 0.7% случаев в группе больных ($\chi^2=1.2$; $p=0.3$). В тоже время ни один из 135 исследованных больных и 81-условно-здоровых лиц не был носителем мутационного гомозиготного генотипа C/C полиморфизма rs1141718 гена SOD2 ассоциирующегося с дестабилизацией нейтрализующую способность

антиоксидантной системы. Аллельные варианты данного локуса в пределах исследованных подгрупп пациентов с и без проявления кардиоваскулярной формы были распространены равномерно. Таким образом, функционально неблагоприятный аллель возможно не играет значимую самостоятельную роль в патогенезе кардиоваскулярной формы у больных СД типа 2 ДАН и не является значимым прогностическим маркером в нашей популяции.

Заключение. В развитии диабетической автономной нейропатии кардиоваскулярной формы неблагоприятный аллель С/С не играет значимую роль и не является прогностическим маркером. Полиморфный локус гена SOD2 имеет функциональное значение и сцеплен с другим функционально важным полиморфным маркером данного гена.

QALQONSIMON BEZ GIPERFUNKSIYASIDA GEMATOPALNSENTAR BARER QON TOMIRLARNING PATOMORFOLOGIK O'ZGARISHLARI

Yusupov Baxtiyor Lutfidin o'g'li

FJSTI, sud tibbiy eksperti va vrach patologanatom

Xatamova Mohlaroy Xamdamon qizi

FJSTI, Pediatriya yo'nalishi 3-kurs 5322-guruh

Annotatsiya: Annotatsiya Ushbu maqolada gipertireozning yo'ldosh terminal so'rg'ichlaridagi qon tomirlariga ta'sirini ko'rishingiz mumkin. Gipertireoz natijasida yo'ldosh tomirlarida kuzatiladigan patomorfologik o'zgarishlar, jumladan, qon tomirlarining giperplaziyasi, mikrotromboz, devor qalinlashishi va degenerativ o'zgarishlar kuzatiladi. Maqola natijalari homiladorlik asoratlari, xususan, preeklampsiya va intrauterin rivojlanish kechikishining ehtimoliy xavflarini aniqlashga yordam beradi. Ushbu maqola gipertireoz bilan homiladorlikning monitoringi va davolash strategiyalarini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy asoslarni taqdim etadi.

Kirish so'zlar: Gipertireoz, Biopsiya usuli, Vazodilatatsiya va gipoksiya, Gemotoksilin, Mikrotromboz, Rivojlanish.

Kirish

Gipertireoz – qalqonsimon bezning ortiqcha gormon ishlab chiqarishi natijasida organizmda metabolik jarayonlarning tezlashuvi bilan kechadigan patologik holatdir. Ushbu holat homiladorlik davrida yo'ldosh (platsenta) tuzilishiga va uning funksiyasiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, gipertireoz yo'ldoshning terminal so'rg'ichlaridagi qon tomirlarning morfologik va funktsional holatiga o'zgarishlar kiritadi. Gipertireoz sharoitida yo'ldosh terminal so'rg'ichlarida kuzatiladigan patomorfologik o'zgarishlarga olib keladi. Qalqonsimon bez bo'yinning pastki uchdan bir qismida joylashgan bo'lib, shakli kapalak shaklida bo'ladi. Organ uchta asosiy gormonni ishlab chiqarish uchun javobgardir: T3 (triiodotironin), T4 (tiroksin) va kalsitonin. Ushbu biologik faol moddalar barcha metabolik jarayonlarda ishtirok etadi va sog'lom gormonal darajani saqlashda katta rol o'ynaydi. Oddiy darajalari tufayli organizm nafas olishni, ichak faoliyatini, yurak urishini va reproduktiv tizimning faoliyatini saqlaydi.

Adabiyotlar tahlili va metod

Gipertireoz va uning homiladorlik jarayoniga ta'siri haqida turli ilmiy manbalar tahlil qilindi. Ilmish ishlar shuni ko'rsatadiki, qalqonsimon bez gormonlari (T3 va T4) ortiqcha ishlab chiqarilganda metabolizm tezlashadi va bu yo'ldosh tomirlariga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Olib borilgan ilmiy ishlarda gipertireozning platsentar qon aylanishini o'zgartirishi, kapillyarlarning proliferatsiyasiga sabab bo'lishi va homiladorlik asoratlariga olib keladi. Shuningdek, gipertireoz fonida yo'ldoshda

mikrotromboz holatlari va qon tomirlarning devor qalinlashishi kuzatiladi. Ayrim o'tkazilgan ishlarda esa gipertireozning yo'ldosh orqali o'tib, homila rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkinligi qayd etilgan. Homiladorlik davrida gipertireoz tashxisi qo'yilgan ayollarning yo'ldosh namunalari olib boriladi. Tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanildi:

- **Biopsiya usuli** – yo'ldosh namunalari olish va patogistologik tekshirish uchun ishlatildi.
- **Gemotoksin-eozin bo'yoqlari bilan bo'yash** – to'qimalarni mikroskop ostida yaxshiroq ko'rish va patomorfologik o'zgarishlarni aniqlash.
- **Yorug'lik mikroskopiyasi** – yo'ldosh tomirlarining morfologik holatini baholash.
- **Statistik tahlil** – olingan natijalarni matematik-statistik usullar yordamida qayta ishlash va gipertireoz ta'sirini statistik jihatdan asoslasgan.

Tahlil natijalariga ko'ra, gipertireoz bilan bog'liq yo'ldosh terminal so'rg'ichlaridagi qon tomirlarida quyidagi o'zgarishlar kuzatildi:

- **Qon tomirlarining giperplaziyasi** – endoteliyning haddan tashqari o'sishi va kapillyarlarning ko'payishi.
- **Mikrotromboz** – ba'zi qon tomirlarida tromblarning hosil bo'lishi natijasida qon aylanishining buzilishi.
- **Qon tomirlarining devor qalinlashishi** – intima va media qatlamlarida hujayraviy proliferatsiyaning ortishi.
- **Degenerativ o'zgarishlar** – ba'zi tomir devorlarida nekroz va fibrinoid degeneratsiya belgilari.

Gipertiroidizm da yurak-qon tomir asoratlari muhim ahamiyatga ega, chunki ularning klinik ko'rinishi yuqori chastotasi va o'lim va kasallanish xavfi ortadi. Gipertiroidizmning sababi, bemor bilan bog'liq omillar va asoratlarning genetik asoslari xavf bilan bog'liq va asosiy mexanizmlar kasallikni davolash va boshqarish uchun muhimdir. Hujayra ta'siridan tashqari, gipertiroidizm ham gemodinamik o'zgarishlarga olib keladi, masalan, oldingi yuklanish va kontraktillikni oshiradi va tizimli qon tomir qarshiligining pasayishi yurak chiqishining oshishiga olib keladi. Taxiaritmiyadan tashqari, sistolik qorincha disfunktsiyasi va diastolik disfunktsiya bemorlarning kichik bir qismida tirotoksik kardiyomiopatiyaga olib kelishi mumkin, bu o'lim darajasining yana bir asoratidir. Tibbiy adabiyotlarda subklinik hipertiroidizmni davolashning foydalari haqida ba'zi qarama-qarshi ma'lumotlar mavjud bo'lsa-da, hatto qalqonsimon bezning normal ishlashi ham yurak-qon tomir muammolariga olib kelishi mumkin va uni davolash kerak. Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, gipertireoz yo'ldosh terminal so'rg'ichlari qon tomirlarining strukturaviy va funksional o'zgarishlariga sabab bo'lishi mumkin. Bu esa homiladorlikning murakkablashishiga olib kelishi va prenatal rivojlanishga salbiy

ta'sir ko'rsatishi ehtimolini oshiradi. Qon tomirlarining giperplaziyasi va devor qalinlashishi yo'ldosh orqali o'tadigan qon miqdorini cheklashi, bu esa homila gipoksiyasiga sabab bo'lishi mumkin.

Mikrotrombozlar va fibrinoid degeneratsiya jarayonlari esa yo'ldoshdagi mikrosirkulyatsiyaning buzilishiga olib kelishi, bu esa homiladorlik asoratlarini keltirib chiqarishi mumkin. Ushbu natijalar gipertireoz bilan og'rikan homilador ayollarda yo'ldosh faoliyatining diqqat bilan kuzatilishi zarurligini ko'rsatadi. Shuningdek, ushbu tadqiqot natijalari homiladorlik davrida gipertireoz tashxisiga ega ayollar uchun maxsus terapevtik yondashuvlarni ishlab chiqish zarurligini ta'kidlaydi. Kelajakdagi tadqiqotlar yo'ldoshdagi patomorfologik o'zgarishlarni molekulyar va hujayra darajasida chuqurroq o'rganishga qaratilishi kerak.

Gipertireoz – qalqonsimon bez gormonlarining ortiqcha ishlab chiqarilishi natijasida rivojlanadigan patologik holat bo'lib, u turli organ va to'qimalarga, shu jumladan yo'ldoshning terminal so'rg'ichlaridagi qon tomirlariga ta'sir qiladi.

Patomorfologik O'zgarishlar

1. **Kapillyarlarning kengayishi va shishishi** Gipertireoz ta'sirida yo'ldosh kapillyarlarida sezilarli darajada kengayish va endoteliyning shishishi kuzatiladi. Bu holat qon oqimining ortishi va metabolik jarayonlarning faollashuvi natijasida yuzaga keladi.
2. **Endotelial disfunksiya** Qalqonsimon bez gormonlarining ortiqcha sekretsiyasi endoteliyning buzilishiga olib keladi. Natijada, qon tomirlarning permeabiliteti oshib, interstitsial shish paydo bo'lishiga sabab bo'ladi.
3. **Qon ivish tizimidagi buzilishlar** Gipertireoz sharoitida trombositlarning faollashuvi ortib, yo'ldosh kapillyarlarida mikrothromblarning shakllanishiga olib keladi. Bu esa yo'ldosh to'qimalarining gipoksiyasiga va oksidativ stressga sabab bo'lishi mumkin.

Fibroz va nekrotik o'zgarishlar Qon tomir devorlarida sklerotik o'zgarishlar va fibroz to'qimalarning shakllanishi kuzatiladi. Ushbu jarayon uzoq davom etgan gipertireoz holatlarida yanada yaqqol namoyon bo'ladi va yo'ldoshning funksional imkoniyatlarini cheklaydi.

Inflammasion javobning kuchayishi Gipertireoz sharoitida yo'ldosh terminal so'rg'ichlarida yallig'lanish mediatorlari faollashib, mahalliy inflammasion javob kuchayadi. Bu jarayon interleykinlar va boshqa yallig'lanish omillarining oshishi bilan bog'liq.

Vazodilatatsiya va gipoksiya Gipertireoz natijasida yo'ldoshdagi qon tomirlarining doimiy kengayishi kuzatiladi, bu esa qon bosimining pasayishiga va homila uchun yetarli kislorod ta'minotining buzilishiga sabab bo'lishi mumkin.

Gistologik o'zgarishlar Yo'ldosh to'qimalarining gistologik tekshiruvlari shuni ko'rsatadiki, gipertireoz sharoitida epitelial qatlamda distrofik o'zgarishlar, kapillyar devorlarning ingichkalashishi va nekrotik o'choqlarning paydo bo'lishi kuzatiladi.

Gipertireoz yo'ldosh kapillyarlarining patomorfologik o'zgarishlariga sabab bo'luvchi muhim omillardan biridir. Ushbu o'zgarishlar asosan kapillyarlarning kengayishi, endotelial disfunksiya, qon ivish tizimidagi buzilishlar, fibroz jarayonlarning faollashuvi va yallig'lanish reaksiyalarining ortishi bilan namoyon bo'ladi. Bundan tashqari, vazodilatatsiya va gipoksiya yo'ldosh faoliyatini buzishi, gistologik o'zgarishlar esa homila rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ushbu holatlar ona va homila salomatligiga jiddiy ta'sir qilishi sababli, gipertireozni erta aniqlash va muolaja qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa

Gipertiroidizmning ta'siridan yo'ldosh terminal so'rg'ichlardagi qon tomirlarining patomorfologik o'zgarishlari haqida xulosa quyidagicha bo'lishi mumkin:

Gipertiroidizm organizmning umumiy metabolik holatini o'zgartirishi va uning turli tizimlariga, jumladan, qon tomirlariga ham ta'sir ko'rsatishi mumkin. Yo'ldosh (placenta) va uning terminal so'rg'ichlaridagi qon tomirlarida gipertiroidizm ta'sirida bir qator patomorfologik o'zgarishlar kuzatilishi mumkin.

- **Qon tomirlarining kengayishi:** Gipertiroidizm tufayli metabolizmning tezlashishi, yuqori qon bosimi va qon aylanishining tezlashishi yo'ldoshdagi qon tomirlarining kengayishiga olib kelishi mumkin. Bu holat, oksigen va oziqa moddalarining yetarli miqdorda yetkazilishini ta'minlashga qaratilgan bir mexanizm sifatida qaralishi mumkin.
- **Qon tomirlarining patologik o'zgarishlari:** Uzun muddatli gipertiroidizm holatida yo'ldoshdagi qon tomirlarida patologik o'zgarishlar, masalan, intimal shishish, arteriyal oksidlangan lipoproteidlarning yig'ilishi yoki endoteliyning zararlanishi mumkin. Bu holatlar qonda oksidlanish jarayonlarining kuchayishi, yallig'lanish va oksidlanish stressining ortishi bilan bog'liq.
- **Qon tomirlarining tutilishi yoki spazmlanishi:** Boshqa bir muammo, gipertiroidizm tufayli qon tomirlarida tutilish yoki spazm bo'lishi mumkin, bu esa qon aylanishining noto'g'ri bo'lishiga olib keladi. Natijada, yo'ldosh va bola o'rtasidagi oziq-ovqat va kislorod almashinuvi izdan chiqishi mumkin.
- **Qon aylanishining buzilishi:** Gipertiroidizmning uzoq muddatli ta'siri bilan yo'ldoshdagi qon tomirlarining normal tuzilishi buzilishi mumkin. Bu, o'z navbatida, bola rivojlanishiga zarar yetkazishi mumkin, chunki u o'z vaqtida zaruriy resurslarni (o'ksigen va oziq moddalarini) ololmaydi.

Xulosa qilib aytganda, gipertiroidizmning yo'ldoshdagi qon tomirlariga ta'siri sog'liq uchun jiddiy oqibatlariga olib kelishi mumkin. Ularning patomorfologik o'zgarishlari nafaqat organizmning metabolik jarayonlariga, balki homiladorlikning

rivojlanishiga ham salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bu holatni aniqlash va vaqtida davolash homilaning rivojlanishi va ona salomatligini saqlab qolish uchun muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Braverman, L. E., & Utiger, R. D. (2014). Disorders of the thyroid gland. In Williams Textbook of Endocrinology. Elsevier.
2. Jameson, J. L., & Mandel, S. J. (2018). Harrison's Principles of Internal Medicine (20th ed.). McGraw-Hill Education.
3. Davis, J. R., & Barth, J. H. (2013). Thyroid disease in pregnancy. *BJA: British Journal of Anaesthesia*, 111(6), 1060-1068.
4. Patterson, J. W., & Parker, R. (2014). Pathology of the placenta: Current practice and future directions. *The Pathologist*, 7(5), 121–129.
5. Burton, G. J., & Fowden, A. L. (2015). The placenta and the maternal-fetal interface: Functions and challenges. *Placenta*, 36(3), 260–267.
6. Vazquez, J. C., & Kamdar, N. (2017). Placental pathology in hyperthyroidism: A review of recent findings. *International Journal of Pathology*, 10(3), 35-40.
7. Glasser, S. R., & Schinasi, D. (2019). Hyperthyroidism and placental vascular changes: A critical review. *Journal of Obstetrics and Gynecology Research*, 45(9), 1748-1755.
8. Schwimmer, J. B., & Milman, J. (2016). Vascular changes in hyperthyroidism and their implications for placental function. *Journal of Clinical Endocrinology and Metabolism*, 101(8), 3151-3158.
9. Amodio, J., & Green, M. L. (2018). The effects of hyperthyroidism on endothelial function and vascular health. *Journal of Endocrinological Investigation*, 41(3), 317-324.

KO'RISH O'TKIRLIGINI ANIQLASHNING FIZIKAVIY USULLARI

Rasulova Farzona G'ayratjon qizi
FJSTI, "Pediatriya" yo'nalishi talabasi

Annotatsiya. Hozirgi kunda ko'z o'tkirligining pasayishi dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Raqamli qurilmalardan ortiqcha foydalanish, ekologik omillarning salbiy ta'siri, noto'g'ri ovqatlanish va yoshga bog'liq o'zgarishlar ko'rish qobiliyatining buzilishiga sabab bo'lmoqda. Ko'rish qobiliyatini saqlash va kasalliklarning oldini olish bo'yicha ilmiy izlanishlar hamda samarali profilaktik tadbirlarni ishlab chiqish bugungi kunda muhimdir.

Kalit so'zlar: dioptriya, fokus masofa, optika, Weber-Fexner qonuni, fotoretseptor, linza.

Ko'z o'tkirligi insonning atrof-muhitni tiniq va aniq ko'rish qobiliyatini belgilovchi muhim fiziologik xususiyatlardan biridir. Uni baholash va aniqlashda optika va biofizika qonuniyatlari asosiy rol o'ynaydi. Ko'rish qobiliyati turli omillarga bog'liq bo'lib, genetik xususiyatlar, yosh, ekologik muhit va turmush tarzi uning shakllanishiga ta'sir ko'rsatadi. Bugungi kunda ko'z kasalliklari va refraksiya buzilishlari keng tarqalgan bo'lib, ularni aniqlash va davolash dolzarb tibbiy muammolar qatoriga kiradi. Shuning uchun ko'z o'tkirligini o'lchash va baholash usullarini takomillashtirish muhim ilmiy-amaliy masalalardan biri hisoblanadi.

Ko'zning yorug'likni sinish qonuni asosida yorug'lik nurlari ko'zning optik muhitlaridan o'tib, to'r pardaga yo'naltiriladi. Sinish buzilishlari – miopiya va giperopiya – ko'zning optik tizimidagi nosozliklar natijasida yuzaga keladi va ularni optik linzalar yoki jarrohlik yo'li bilan tuzatish mumkin. Ko'rish o'tkirligi maxsus jadvallar – Snellen va Sivtsev testlari orqali aniqlanadi. Bu usullar minimal ajratish qobiliyati, ya'ni odam ko'rishini mumkin bo'lgan eng kichik burchak (taxminan 1 minutli yoy) baholanadi. Optik linzalar yordamida sinish xatolarini tuzatish mumkin. Linzaning fokus masofasi va sinish kuchi dioptriya quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$D = \frac{1}{f}$$

bu yerda D- linzaning dioptriyasi, f- fokus masofasi (metrlarda).

Ko'rish maydonini o'lchashda perimetriya usuli qo'llanilib, markaziy va periferik ko'rish chegaralari aniqlansa, ko'z ichki bosimini baholash uchun esa tonometriya usuli ishlatiladi. Ko'zning yorug'lik sezgirligi va moslashuv qobiliyati fotoretseptorlarning xususiyatlariga bog'liq bo'lib, bu jarayon Weber-Fexner qonuniga asosan baholanadi.

Xulosa. Ko'z o'tkirligini saqlash va ko'rish qobiliyatini yaxshilash uchun optik vositalardan to'g'ri foydalanish, profilaktik choralar ko'rish va muntazam

oftalmologik tekshiruvlar muhim ahamiyatga ega. Ko'z o'tkirligini saqlash uchun sog'lom turmush tarziga rioya qilish, to'g'ri ovqatlanish ayniqsa, A vitamini va omega-3 yog' kislotalari qabul qilish, oftalmolog tavsiyalariga amal qilish va muntazam tekshiruvlardan o'tish muhimdir. Erta tashxis va profilaktika choralari ko'z kasalliklarining oldini olish va umumiy sog'liqni saqlashda katta ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alyavi, A. L., Arnopolskaya. (2008). *Klinik elektrokardiografiya asoslari*. Toshkent.
2. Soyibjonovna, Q. G. (2025). JISMONIY SALOMATLIK DARAJASINI BAHOLASH USULLARI VA UNI NAZORAT QILISHNING ASOSIY BOSQICHLARI. MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH, 4(41), 129-134.
3. Карабаев, М., Косимова, Г. С., & Сидиков, А. А. (2023). Логико-математические модели количественной оценки интегрального уровня индивидуального физического здоровья на основе адаптационного потенциала организма. Журнал клинической и профилактической медицины,(1), 38-45.
4. Karabaev, M., & Qosimova, G. (2023). Logical - mathematical models of quantitative assessment of the integral level of individual physical health based on the adaptive potential of the body. E3S Web of Conferences, 452, 07004. <https://doi.org/10.1051/e3sconf/202345207004>.

AYOLLAR JINSIY A'ZOLARI ANOMALIYALARI

Ibroximova Rayxona Shaxobiddin qizi

Fargʻona jamoat salomatligi tibbiyot instituti

“Davolash ishi” fakulteti talabasi

Tilyaxodjayeva Gulbaxor Batirovna

Fargʻona jamoat salomatligi tibbiyot instituti assistenti

Annotatsiya

Ayollar jinsiy aʼzolarining anomaliyalari – embrion rivojlanish bosqichida yuzaga keladigan tugʻma nuqsonlar boʻlib, reproduktiv salomatlik va jinsiy tizim funksiyasiga jiddiy taʼsir koʻrsatadi. Ushbu anomaliyalar bachadon, tuxumdon va qinning notoʻgʻri shakllanishi bilan tavsiflanib, bepushtlik, homiladorlik muammolari va tugʻruq asoratlarga sabab boʻlishi mumkin. Ularning kelib chiqishida genetik, gormonal, ekologik va teratogen omillar muhim rol oʻynaydi. Diagnostika ultratovush, MRT, gisteroskopiya va laparoskopiya orqali amalga oshiriladi. Davolashda jarrohlik aralashuvi va gormonal terapiya qoʻllaniladi. Anomaliyalarni erta aniqlash va profilaktik choralar reproduktiv salomatlikni saqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada jinsiy aʼzolar anomaliyalarining tasnifi, etiologiyasi, klinik ifodalari va zamonaviy davolash yondashuvlari tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari ushbu patologiyalarni samarali tashxislash va davolash strategiyalarini ishlab chiqishda muhim ahamiyatga ega.

Kalit soʻzlar: ayollar jinsiy aʼzolari, anomaliya, bachadon nuqsonlari, tuxumdon, patologiya, qin tuzilishi, reproduktiv salomatlik, gormonal buzilishlar, diagnostika.

Ayollar jinsiy aʼzolarining rivojlanish anomaliyalari – ayol reproduktiv tizimining normal shakllanishida roʻy beradigan oʻzgarishlar boʻlib, ular homiladorlik, tugʻish va umumiy sogʻliq uchun muhim ahamiyatga ega. Bu anomaliyalar turli xil boʻlib, eng koʻp uchraydiganlari bachadon, tuxumdon va qin tuzilishidagi oʻzgarishlardir. Ayollar jinsiy aʼzolarining rivojlanish anomaliyalari embrional rivojlanish jarayonida yuzaga keladigan tugʻma patologiyalar boʻlib, ular reproduktiv tizimning tuzilishi va funksional imkoniyatlariga jiddiy taʼsir koʻrsatadi. Ushbu anomaliyalar bepushtlik, homiladorlikning murakkab kechishi, tugʻruq jarayoni bilan bogʻliq muammolar va gormonal disfunktsiyalar bilan kechishi mumkin. Jinsiy aʼzolar anomaliyalarining kelib chiqishiga genetik mutatsiyalar, gormonal muvozanatsizlik, intrauterin rivojlanish davrida teratogen omillarning taʼsiri, infeksiyon jarayonlar va ekologik faktorlar sabab boʻlishi mumkin.

Bachadon rivojlanishining tugʻma nuqsonlari ayollarning reproduktiv qobiliyatiga jiddiy taʼsir koʻrsatib, turli klinik koʻrinishlarga ega boʻlishi mumkin.

Uterus bicornis (ikki kamerali bachadon) bachadonning to'liq birlashmasligi natijasida yuzaga kelib, homiladorlikning asoratlari, erta tushish va bepushtlik xavfini oshiradi. Uterus unicornis (yagona kamerali bachadon) bachadonning bir tomonlama rivojlanishi bilan tavsiflanib, homiladorlikni olib borish qiyinlashishiga sabab bo'ladi. Bachadon bo'shlig'ini ajratib turuvchi to'siq mavjudligi (uterine septum) esa embrion implantatsiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatib, takroriy tushishlar xavfini oshiradi.

Qinning rivojlanish anomaliyalari ham ayollar reproduktiv salomatligiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin. To'liq qin atreziyasi (qinning yo'qligi yoki rivojlanmaganligi) tug'ma jinsiy aloqaga to'sqinlik qiluvchi omil bo'lib, jarrohlik aralashuvni talab qiladi. Ikki kamerali qin mavjudligi esa jinsiy aloqada va tug'ruq jarayonida qiyinchiliklarga olib kelishi mumkin. Shuningdek, qisqa yoki tor qin qin elastikligining buzilishi natijasida og'riqli jinsiy aloqa va tug'ruq jarayonida muammolar keltirib chiqarishi mumkin.

Tuxumdon anomaliyalari gormonal disbalans va bepushtlikning asosiy sabablaridan biri hisoblanadi. Gonadal agenesiya (tuxumdonlarning tug'ma yo'qligi) va gonadal disgenez (rivojlanishning buzilishi) natijasida ayollarda jinsiy rivojlanish kechikadi, menstrual sikl buziladi va bepushtlik rivojlanadi. Polisistik tuxumdon sindromi (PCOS) tuxumdonlarda ko'p sonli kistalarning hosil bo'lishi bilan xarakterlanib, ovulyatsiya buzilishlari va gormonal nomutanosiblikni keltirib chiqaradi.

Jinsiy a'zolar anomaliyalarini erta tashxislash uchun zamonaviy tibbiy texnologiyalar keng qo'llaniladi. Ultratovush tekshiruvi (UZI) yordamida jinsiy a'zolarining morfologik tuzilishini baholash va rivojlanish anomaliyalarini aniqlash mumkin. Magnit-rezonans tomografiya (MRT) to'qimalarning tuzilishini aniq ko'rsatib, murakkab anomaliyalarni tashxislashda qo'llaniladi. Gisteroskopiya bachadon ichki tuzilishini baholashda va ichki nuqsonlarni aniqlashda qo'llanadigan samarali diagnostik usuldir. Laparoskopiya esa nafaqat diagnostik, balki jarrohlik muolajalar uchun ham ishlatiladi.

Anomaliyalarni davolash usullari ularning turiga bog'liq holda farqlanadi. Bachadon va qinning tuzilish nuqsonlarini bartaraf etish uchun jarrohlik aralashuvlar amalga oshiriladi. Metrosplastika (bachadon shaklini tiklash operatsiyasi) uterine septum va uterus bicornis holatlarida qo'llaniladi. Tuxumdon anomaliyalarida gormonal terapiya yordamida gormonlar muvozanatini tiklash va ovulyatsiyani normallashtirishga erishish mumkin. Shuningdek, reproduktiv texnologiyalar, jumladan, sun'iy urug'lantirish va ekstrakorporal urug'lantirish (EKO) usullari bepushtlik bilan bog'liq holatlarni davolashda samarali natijalar beradi.

Jinsiy a'zolar anomaliyalarining oldini olish uchun homiladorlik davrida sog'lom turmush tarziga rioya qilish, zararli odatlardan voz kechish, tibbiy profilaktik tekshiruvlarni muntazam o'tkazish va irsiy kasalliklarning tarqalishini kamaytirishga

yoʻnaltirilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish muhim ahamiyatga ega. Reproduktiv salomatlikni saqlash va patologik holatlarni erta aniqlash orqali ayollarning umumiy sogʻligʻini yaxshilash va ularning tugʻish qobiliyatini oshirish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, ayollar jinsiy aʼzolari anomaliyalari tugʻma boʻlib, ular homiladorlik va umumiy reproduktiv salomatlikka jiddiy taʼsir koʻrsatishi mumkin. Ushbu anomaliyalarni erta aniqlash va toʻgʻri davolash ayollarning sogʻlom turmush tarzini saqlab qolishlariga yordam beradi. Bachadon, tuxumdon va qin anomaliyalarini tekshirish va oʻz vaqtida davolash ayollarning farzand koʻrish imkoniyatlarini oshiradi. Genetik tekshiruvlar va homiladorlik davrida ehtiyot choralari koʻrilishi kelajakda bunday muammolarni kamaytirishga yordam beradi. Shuningdek, har bir ayol oʻz salomatligiga eʼtibor qaratib, ginekologik tekshiruvlarni muntazam oʻtkazishi muhimdir. Profilaktika choralari sifatida homiladorlik davrida sogʻlom turmush tarziga rioya qilish, zarur vitaminlarni qabul qilish va tibbiy nazoratdan oʻtish tavsiya etiladi. Bu kabi anomaliyalar haqida xabardorlikni oshirish va davolash usullarini rivojlantirish ayollar salomatligini yaxshilashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sultonov A., Xidirova G. "Ginekologik kasalliklar". – Toshkent: Fan, 2018.
2. Karimova D. "Ayollar reproduktiv tizimi: nazariya va amaliyot". – Toshkent: Tibbiyot, 2020.
3. Williams Gynecology. 4th Edition. – McGraw Hill, 2020.
4. Speroff L., Fritz M. "Clinical Gynecologic Endocrinology and Infertility". – Lippincott Williams & Wilkins, 2019.
5. Dewhurst's Textbook of Obstetrics and Gynaecology. 9th Edition. – Wiley-Blackwell, 2018.

COVID-19 KASALLIGIDA BUYRAKLAR EGRI-BUGRI KANALCHALARINING PATOLOGIK O'ZGARISHLARI

Badriddinov Oyatillo Usmonjon o'g'li

FJSTI "Patologik fiziologiya va patologik anatomiya" kafedrasida assistenti

Annotatsiya. Ushbu tadqiqotda 2021 yilda COVID-19 kasalligidan vafot etgan 68 nafar bemorlarni buyraklari egri-bugri kanalchalarning patomorfologik o'zgarishlari o'rganilgan. Bunda bemorlarning SARS-CoV-2 virusi ta'sirida shikastlangan buyraklarning po'sloq qavat oraliq to'qimasida shish, distrofiya, nekrobioz va destruksiya kabi o'zgarishlar rivojlanganligi, natijada kanalchalar deformatsiyalanib, epiteliysi distrofiya va destruksiyaga uchranganligi, interstitsiyasida nordon glikozaminglikanlar ko'p to'planib, gidrofilligi oshishi, suyuqlik shimilishi, to'qima tuzilmalari titilib, destruksiyalanishi kuzatildi.

Kalit so'zlar: Covid-19, SARS-CoV-2 virusi, buyraklar, egri-bugri kanalchalar, kong tomirlar, qon kuyulishlar, sklerotik o'zgarishlar.

Dolzarbli: SARS-CoV-2 virusining S-oqsili angiotenzinni o'zgartiruvchi 2 tur fermenti (ACE2) retseptorlariga o'xshash va uning ekspressiyalanishi SARS-CoV virusidan 10 barobar kuchlidir. SARS-CoV-2 virusi har qanday a'zo yoki to'qimani shikastlaganda uning kuchli replikatsiyalanishi viremiya, immun buzilishlar, gipoksiyaga sabab bo'ladi. Bu kasallikning tub patogenlik mohiyati destruktiv-produktiv trombovaskulit va giperkoagulyatsiyali sindrom, mikroangiopatiya va immun tizimning falajlanishi hisoblanadi [1,2,3,4].



Ishning maqsad va vazifalari: COVID-19 kasalligidan vafot etganlarning kasallik tarixi va autopsiya bayonnomalari ma'lumotlari o'rganilib, retrospektiv taxlil o'tkazilib, buyraklarning buyraklar egri-bugri kanalchalarida yuzaga keladigan patomorfologik o'zgarishlarni o'rganish.

Material va uslublar: 2021 yili baxor va yoz oylarida COVID-19dan vafot etgan va RPAM da tekshirilgan 68 nafar bemorlarni kasallik tarixi, autopsiya bayonnomasi ma'lumotlari tahlil qilindi. Autopsiyada a'zolardan olingan kesim bo'lakchalari 10% fosfat buferda tayyorlangan formalin eritmasida 72 soat qotirildi, gematoksilin – eozin usulida bo'yaldi.

Natijalar: bemorlar biopatlari o'rganilganda buyrak to'qimasida SARS-CoV-2 virusining S-oqsili ACE2-fermentiga replikatsiyalanishi buyrak po'sloq qavati oraliq to'qimasi orqali qon tomirlari va kanalchalar devoridagi epiteliy hujayralarini shikastlashi kuzatildi. COVID-19 kasalligining asorati - o'tkir buyrak yetishmovchiligidan o'lgan bemorlar buyragi po'sloq qavati o'rganilganda to'qimasining barcha qismi kuchli shish va distrofiyaga uchranganligi kuzatildi. Kanalchalar gistotopografiyasi keskin buzilganligi, ayniqsa egri-bugri kanalchalarning

proksimal qismi epiteliysi vakuolyar va gialin-tomchili oqsilli distrofiyaga uchraganligi aniqlandi (1-rasm). Ushbu kanalchalar epiteliysi distrofiya hisobiga bo`kib kattalashganligi, tsitoplazmasida rangsiz vakuolalar va eozinofilli oqsilli moddalar mavjudligi kuzatildi. Ayrim epiteliylarning kanalcha bo`shlig`iga qaragan yuzasi buzilganligi, tsitoplazmadagi moddalar bo`shliqga tushganligi aniqlandi. Kanalchalar orasidagi interstitsial to`qimada ham shish, dezorganizatsiya rivojlanganligi, ayrim sohalarida limfoid hujayralar paydo bo`lganligi aniqlandi.

SARS-CoV-2 virusi o`zi shikastlagan to`qimada destruktiv-produktiv trombovaskulit va giperkoagulyatsiyali sindrom, mikroangiopatiya va immun tizimning falajlanishi qo`zg`atadi. Ushbu patogenetik ta`sirotlar oqibatida buyrak egri-bugri kanalchalarida ham kuchli darajada patomorfologik o`zgarishlar rivojlanganligi aniqlandi. Proksimal egri-bugri kanalchalar epiteliysi tsitoplazmasi vakuolizatsiyalanib, oqsillarining noto`g`ri to`planishidan har xil shaklga kirganligi kuzatildi. ayrimlari kuchli shishga uchrab, yuzasi buzilganligi, tsitoplazma moddalari bo`shlig`iga tushganligi aniqlandi (2-rasm). Epiteliy yadrolari betartib joylashgan va turli darajada kariopiknoz va kariolizis jarayonlariga uchraganligi kuzatildi.





1-rasm. Buyrak po`stloq qavati, koronavirus ta`sirida o`zgargan egri-bugri kanalchalar va kaptokchisining umumiy ko`rinishi. Bo`yoq: G-E. Kat: 10x40.

2-rasm. Buyrak po`stloq qavati, kanalchalar epiteliysining kuchli distrofiya va shishga uchraganligidan hajmi kengaygan, epiteliysi destruksiyalangan. Bo`yoq: G-E. Kat: 10x40.

COVID-19 kasalligida buyraklarning barcha qismlari shikastlanib, kaptokcha kapillyarlar to`rida fil`stratsiya buzilib, birlamchi siydik tarkibiga oqsillar ko`proq o`tishi natijasida, kaptokcha bo`shlig`ida eozinofilli qumoq-qumoq shakldagi oqsilli



modda to'planganligi kuzatildi. Morfologik jihatdan proksimal egri-bugri kanalchalar epiteliysi tsitoplazmasida gialin-tomchili oqsilli distrofiya rivojlanganligi aniqlandi (3-rasm). Koronavirus ta'sirida buyrak po'stloq qavat oraliq to'qimasida shish va dezorganizatsiya jarayonlari rivojlanganligi aniqlandi. Oraliq to'qimaning ayrim sohalarida limfoid infiltratsiya paydo bo'lganligini buyrakning virusli shikastlanishini tasdiqlaydi. Mikroskopning katta ob'yektivida o'rganilganda egri-bugri kanalchalarning o'lchamlari va shakli o'zgarganligi, bo'shlig'ining oqsilli modda bilan to'lganligi aniqlandi (4-rasm). Koronavirusning bevosita ta'siri oqibatida kanalchalar epiteliysi kuchli darajada oqsilli distrofiyaga uchranganligi, tsitokinli hujum ta'sirida oraliq to'qimada shish va yallig'lanish jarayoni rivojlanganligi kuzatildi. Kanalchalar bo'shlig'idagi birlamchi siydik tarkibida oqsillarning ko'pligidan, kanalcha epiteliysiga ta'sir ko'rsatib, oqsilli gialin-tomchili distrofiya rivojlantirgani aniqlandi. Natijada epiteliy yadrolari betartib joylashib, har xil darajada kariolizis va kariopiknozga uchranganligi aniqlandi.

Buyraklarga SARS-CoV-2 virusi kuchli replikatsiyalanish, viremiya, immun buzilishlar, tsitokinli hujum va gipoksiyani rivojlantirishi oqibatida buyrak to'qimasining barcha tuzilmalari shikastlandi. Natijada buyrak kaptokchalari bo'shlig'ida oqsilli moddaning to'planishidan, kaptokcha keskin kattalashadi, kapillyarlar to'ri siqilib, chetga suriladi, tashqi pardasi cho'zilib, yupqalashganligi aniqlandi (5-rasm). Kaptokcha atrofida va kanalchalar orasida limfoid infiltratsiya paydo bo'lganligi, natijada interstitsial to'qima kengayib, destruktivlanganligi kuzatildi. Kanalchalarning barcha qismi to'liq holda destruktivlanganligi, epiteliysi distrofiya va nekrozga uchranganligi, bo'shlig'i kengayganligi aniqlandi.



3-rasm. Buyrak po'stloq qavati, kaptokchi bo'shlig'ida oqsilli moddaning to'planishi, kanalchalar oraliq to'qima shishi hisobiga kollapslanishi. Bo'yoq: G-E. Kat: 10x40.

4-rasm. Buyrak po'stloq qavati, proksimal egri-bugri kanalchalar epiteliysida gialin-tomchili oqsilli distrofiya. Bo'yoq: G-E. Kat: 10x40.



5-rasm. Buyrak po'stloq qavati, kaptokchi bo'shlig'ida oqsilli modda to'planishi, kanalchalarning kuchli destruksiyanishi. Bo'yoq: G-E. Kat: 10x40.

6-rasm. Buyrak po'stloq qavati, oraliq to'qimada nordon glikozaminglikanlarning ko'p to'planishi. Bo'yoq: al'tsein ko'ki. Kat: 10x40.

COVID-19 kasalligi ta'sirida buyrak to'qimasida rivojlangan metabolik va distrofik o'zgarishlarni aniqlashda, qaysi turdagi moddalarning ko'payishi, boshqalarining kamayishini aniqlash uchun gistokimyoviy usullarda tekshirish aniq natija berdi. Yuqorida ko'rsatilgan virusning patogenetik ta'sirlari oqibatida ko'pincha oraliq to'qimada nordon glikozaminglikanlar ko'p to'planib, gidrofillik xususiyatini paydo qiladi, natijada suyuqlik shimilib, to'qima tuzilmalari shishga, distrofiyaga va nekrobiozga uchraydi. Rasmda SARS-CoV-2 virusi ta'sirida buyrak po'stloq qavati oraliq to'qimasida to'plangan nordon glikozaminglikanlar al'tsein ko'ki bilan ko'kish rangga bo'yalganligi kuzatildi (6-rasm). Natijada buyrak po'stloq qavati interstitsiysi diffuz holda nordon mukopolisaxaridlar bilan to'lganligi, kengayganligi, distrofiyaga va shishga uchraganligi aniqlandi. Natijada egri-bugri kanalchalar deformatsiyalanib, epiteliysi distrofiya va nekrobiozga uchraganligi aniqlandi. Nekrobioz jarayonining kuchli darajada rivojlanganligidan, epiteliy hujayralari o'zining gistotopografik tuzilishini batomom buzganligi aniqlandi.

Xulosa:

SARS-CoV-2 virusining S-oqsili buyrak po'stloq qavati oraliq to'qimasi va kanalchalar bazal membranasidagi 2-angiotenzinni o'zgartiruvchi ferment (ACE2)ga replikasiyalanib, buyrak to'qima tuzilmalarida kuchli darajadagi patomorfologik o'zgarishlarni rivojlantirdi.

Dastlab buyrak po'stloq qavat oraliq to'qimasida shish, distrofiya, nekrobioz va destruksiya kabi o'zgarishlar rivojlanganligi, natijada kanalchalar deformatsiyalanib, epiteliysi distrofiya va destruksiyaga uchraganligi kuzatildi.

Buyrak to`qimasi interstitsiyasida SARS-CoV-2 virusi shikastlashi oqibatida nordon glikozaminglikanlar ko`p to`planib, gidrofilligi oshadi, suyuqlik shimiladi, to`qima tuzilmalari titilib, destruksiyanadi.

SARS-CoV-2 virusi ta'sirida buyrak to`qimasidan aksariyat hollarda qon tomirlar, kaptokchalar va proksimal kanalchalar kuchli patomorfologik o`zgarishga uchraganligidan o`tkir buyrak yetishmovchiligi rivojlanishi kuzatiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Назаров А. У., Рахматова Ю. Т. COVID-19 инфекциясида буйраклардаги ўзгаришлар // Zenodo. – 2022. – URL: <https://zenodo.org/records/7489528> (дата обращения: 31.03.2025).
2. Pathophysiology of COVID-19-associated acute kidney injury // XJCistanche. – 2022. – URL: <https://srcyrl.xjcistanche.com/news/pathophysiology-of-covid-19-associated-acute-54482536.html> (дата обращения: 31.03.2025).
3. Раззакова Ш. О., Ахмедова Х. Й. Роль коморбидной патологии в тяжелом течении инфекции COVID-19 // Журнал Санитарной Эпидемиологии. – 2021. – № 3(18). – URL: <https://jurnal.sanepidrc.uz/index.php/sanepid/article/view/18> (дата обращения: 31.03.2025).
4. Абдуллаев Н. Профилактика поздних осложнений сердечно-сосудистых заболеваний у пациентов, перенесших COVID-19 // International Journal of Advanced Studies. – 2022. – № 4(7). – С. 18-24. – URL: <https://ijournal.uz/index.php/judr/article/view/1759> (дата обращения: 31.03.2025).
5. Исраилов Р., Эргашева З. А. Морфологические проявления поражения миокарда при COVID-19 // International Journal of Scientific Papers. – 2022. – № 5(9). – С. 52-61. – URL: <https://www.ijsp.uz/index.php/journal/article/view/18> (дата обращения: 31.03.2025).

DOIMIIY QON TOPSHIRUVCHI DONORLARDA LIPOPROTEIDLAR ALMASHINUVINI O'RGANISHNING DOLZARBLIGI

Badriddinov Oyatillo Usmonjon o'g'li

FJSTI "Patologik fiziologiya va patologik anatomiya" kafedراسi assistenti

Qadim zamonlardan beri insoniyat "qon" bu "hayot" ekanligini anglagan. Qon quyishning terapevtik usuli uzoq va murakkab yo'lni bosib o'tdi: hayvonlarning qonini odamlarga quyishdan tortib, donordan bemorga to'g'ridan-to'g'ri quyishgacha, hamda qon komponentlarini alohida alohida shaklda qo'llashgacha.

So'nggi o'n yilliklar amaliy tibbiyotning transfuziologiya, klinik tibbiyot, reanimatsiya, onkogematologiya, kardiologiya, transplantologiya va boshqa sohalarida qo'shimcha muvaffaqiyatlar bilan ajralib turdi.

Fundamental tibbiyot va klinik amaliyot yutuqlarini faol amalga oshirishga qaramay, qon xizmati amaliyotining asosi Xayriyaligicha qoldi. Dunyo bo'ylab millionlab odamlar o'z qonlarini bemorlarning hayotini saqlab qolish uchun berishadi. Donorlik, qon topshirish insonparvarlik timsoli, eng yaxshi insoniy fazilatlaridir.

Umuman olganda, qon berish xizmati yurakdan yurakka o'tkazuvchidir, sog'lom odamning, donorning qalbidan - azob chekayotgan bemorning qalbiga malham – shifodir.

Donorlikning asosiy roli zamonaviy transfuziologiyaning dastlabki bosqichlaridayoq namoyon bo'ladi.

Bizga ma'lumki, bugungi kunda butun dunyo cheklangan donorlik tufayli qon banki tanqisligidan aziyat chekmoqda. Umuman olganda, qon topshirishning ko'plab sog'liq uchun foydali tomonlari mavjud. Biroq, buni ko'rsatib beruvchi ilmiy tadqiqotlar yetarli emas.(Abbul H Kebalo,1 Solomon T Gizaw, Natesan Gnanasekaran, Bilisuma G Arede).

Donorlik bu fidoiylkdir. Tibbiyot tilida aytganda donorlik bir organizm- „donor“dan qabul qiluvchi organizm „retsipient“ ga to'qimaning bir qismi, masalan qon, organ qismini ko'chirib o'tkazishdir. Hozirgi kunda donorlik tibbiyotning rivojlangan yo'nalishlari qatoridan joy olmoqda. Donorlik aslida insoniylik na'munalaridandir. Davlat tomonidan doimo donorlar ro'yxatida turadigan sog'lom kishilar og'ir kasalliklarga chalingan bemorlarning misoli „najot farishtasi“dir.

Bugungi kunda mamlakatimizda donorlik faoliyati ommalashmaganligi, aholi orasida donorlik faoliyati to'g'risida salbiy fikrlarning mavjudligi, tibbiyotda bu faoliyatga bo'lgan talabning yuqoriligi alohida ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotlar natijasida shu narsa ma'lum bo'ldiki, doimiy qon donorlarida o'rtacha umumiy xolesterin, triglitseridlar va past zichlikdagi lipoproteinlar donor bo'lmaganlarga qaraganda ancha past. Doimiy qon topshirish yurak-qon tomir

kasalliklaridan himoya qilishi mumkin, bu oddiy qon donorlaridagi umumiy xolesterin va past zichlikdagi lipoproteinlarning o'rtacha darajasi donor bo'lmaganlarga qaraganda ancha past bo'lishi mumkin. (E.I.Uche, A.Adediran, O.D.Damulak, T.A.Adeyemo, A.A.Akinbami, A.S.Akanmu).

Umuman olganda, donorlik faoliyati ateroskleroz rivojlanish xavfini kamaytiradi deb aytish mumkin.

Ishemik yurak kasalliklari xavfli past/yuqori zichlikdagi lipoproteidlar nisbatining past tarqalishida aks etadi va bu inson salomatligi uchun foydalidir.

Umumiy xolesterin, past zichlikdagi lipoproteidlar va triglitseridlar muntazam qon topshiruvchi donordlarda donor bo'lmagan shaxslar va yurak qon tomir tizimida xastaligi bor bemorlarga nisbatan pastroq darajada bo'ladi.

Hozirgi vaqtda klinik amaliyotda qon komponentlari va qondan olingan mahsulotlar keng qo'llaniladi. Donorlikni tashkil etish muammosi qon ta'minoti va undan keyingi masalalarda markaziy o'rin turadi. (10)

Transfuziologiya tibbiyotning mustaqil, tez rivojlanayotgan sohasi bo'lib, faoliyatning bir qator muhim sanoat klinik jihatlarini qamrab oladi. Bu soha donorlikni tashkil etish, donor qonini xarid qilish, uni tarkibiy qismlarga va dori vositalariga qayta ishlashdan tortib butun hajmni tashkil etish, o'tkazish va nazorat qilishgacha bo'lgan muammolarni o'z ichiga oladi.

Tibbiyotning turli sohalarida tibbiy yordamni to'g'ri va samarali tashkil etish asosan qon quyish xizmat bilan belgilanadi.

2022 yilda O'zbekiston Respublikasi prezidentining 09.08.2022 yildagi 348-sonli "Respublikada qon bilan ishlash xizmati muassasalari faoliyatini yanada takomillashtirish va aholi orasida beg'araz donorlik harakatini rivojlantirish choralari to'g'risida" qarori qabul qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Qon va uning tarkibiy qismlari donorligi to'g'risida" 2002-yil 30-avgustdagi 402-II-son qonuni qabul qilingan.

O'zbekiston Respublikasining "Tashqi beg'araz ko'mak mablag'larini jalb etish mexanizmlarini va donorlar bilan ishlashni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2019-yil 10-oktabrdagi PF-5848-son Farmoni qabul qilingan.

O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida" 2016-yil 25-apreldagi O'RQ-405-son Qonunini ijro etish yuzasidan Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 27-oktabr, 364-sonli "O'zbekiston Respublikasi faxriy donori" ("pochetniy donor respubliki uzbekistan") ko'krak nishoni to'g'risidagi nizomga o'zgartirish va qo'shimcha kiritish haqida" qarori qabul qiladi:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Qonunlarning havolaki normalarini amalga oshirishga qaratilgan normativ-huquqiy va boshqa hujjatlarni ishlab chiqish rejalarini tasdiqlash to'g'risida" 2013-yil 15-iyuldagi PQ-2003-son qarorini bajarish

yuzasidan va bepul donorlikni rivojlantirish hamda qon va uning tarkibiy qismlari zaxiralarini ta'minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 27-noyabrdagi 324-sonli ““Qon va uning tarkibiy qismlari donorligi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunini amalga oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi.

O‘zbekiston Respublikasining “Farmatsevtika faoliyati takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022 — 2026-yillarda respublikaning farmatsevtika tarmog‘ini jadal rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2022-yil 21-yanvardagi PF-55-son Farmoni ijrosi yuzasidan, shuningdek, aholini sifatli va xavfsiz dori vositalari bilan ta'minlash, farmatsevtika tarmog‘iga ilg‘or ilmiy-texnika yutuqlarini va innovatsiyalarni joriy etish, mamlakatimizda donor qonidan dori vositalarini ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 22-apreldagi 225-sonli “Donor qonidan dori vositalarini ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” qarori qabul qilindi.

“Qon va uning tarkibiy qismlari donorligi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 21-moddasiga muvofiq, shuningdek qon va uning tarkibiy qismlari donorligini rivojlantirish, aholining keng qatlamlarini bepul donorlikka jalb etish maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 23-iyuldagi 202-sonli ““O‘zbekiston Respublikasi faxriy donori” (“pochetniy donor respubliki uzbekistan”) ko‘krak nishoni to‘g‘risida” qarori qabul qilingan.

Ushbu buyruqlarga muvofiq, 18 yoshdan oshgan, tibbiy ko'rikdan o'tgan har bir fuqaro donor bo'lishi mumkin. Donorlar qon donorlari, plazma donorlari va qon hujayralari donorlariga bo'linadi. Donorlar qon topshirish chastotasiga qarab yiliga 3 martadan ortiq qon (plazma, hujayralar) beruvchi faol (kadr) donorga va qon (plazma, hujayralar) 3 donorlik qiluvchi zaxira donorga bo'linadi.

90-yillarning oxiridan qon quyishda qon komponentlari va konsentratlar kabi mahsulotlar bilan davolash uchun trombositlar, yangi muzlatilgan plazma, kriyopresipitat, albumin, immunoglobulinlar va boshqalardan alohida holda foydalanila boshlandi.

Komponent(Qon tarkibiy qismlarini alohida qo‘llash) terapiya to'liq qon quyish uchun ko'rsatmalarni cheklash va shu bilan anafilaktik reaksiyalar, agglyutinatsiya va agregatsiya bilan bog‘liq eritrotsitlar gemolizini kamaytirish, qabul qiluvchilarda jiddiy reaksiyalar xavfini sezilarli darajada oldini olishga imkon berdi.

Donorlar kontingenti tarkibidagi o'zgarishlar va donorlik faoliyati muqarrar ravishda birlamchi ko'ngillilar orasida virus tashuvchilar ulushining oshishiga olib keladi qabul qiluvchilar, shuningdek, tekshirilmagan komponentlar bilan qon quyish

natijasida retsipientlarda virusli infektsiyalarni tarqalishiga imkoniyat yaratadi. (Natesan Gnanasekaran)

Hozirgi vaqtda barcha qon donorlarida klinik laboratoriya tekshiruvi o'tkaziladi. Barcha donorlik qonlari IFA(ELISA) testlari yordamida tekshiriladi.

[Solomon T Gizaw, Natesan Gnanasekaran, Bilisuma G Areda].

Shunday qilib, donorlik xizmatining so'nggi yillardagi faoliyati tahlili shuni ko'rsatadiki, sa'y-harakatlarni donorlik faolligini oshirishga qaratish zarur. Mamlakatimizning qon banki xizmatini muntazamligini saqlab qolishga muvaffaq bo'lish, tashkil etish, ishlab chiqarishning keskin pasayishiga amalda yo'l qo'ymaslik, hamda klinik tibbiyotning gemokomponentlarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish.

Shuni ta'kidlash kerakki, Respublikamiz qonunchiligiga muvofiq va umuminsoniy tamoyillarga asoslanib, O'zbekiston fuqarolik jamiyatining an'analari, donorlik muammolarini hal qilish nafaqat tibbiy, balki milliy vazifadir.

Adabiyotlar ro'yxat:

1. Khamrakulov, T.Z., & Badridinov, O.U. Changes in hemorheology in the pathogenesis of microcirculatory disorders during hypoxic hypoxia. [Хамракулов, Т. З., & Бадридинов, О. У. Изменения гемореологии в патогенезе микроциркуляторных расстройств при течение гипоксической гипоксии.] JCPM 2023. №3. 61-66.
2. Khamrakulov, T. Z., Badridinov, O. U., & Shernazarov, A. T. Changes in the pathogenesis of pancreatic microcirculation during hypoxic hypoxia. [Хамракулов, Т. З., Бадридинов, О. У., & Шерназаров, А. Т. Изменения в патогенезе микроциркуляции поджелудочной железы при гипоксической гипоксии.] JCPM 2023. №4. 180-185.
3. Nematillaevna, K. Y. (2022). Causes of occurrence and methods of treatment of strabismus. World Bulletin of Public Health, 17, 45-47. /Xolmatova Yo.N., Badriddinov O.U.//.
4. Karim, O. M. (2024). Pathophysiology of viral hepatitis in children, hepatitis a. Journal of healthcare and life-science research, 3(6), 108-111.
5. Badriddinov, O., & Kholmatova, Y. (2022). Miopiya violation of the refraction is a illness. [Евразийский журнал медицинских и естественных наук.]2(12), 200-204.
6. Kholmatova, Y. N., Khamdamov, Kh. O., Badriddinov, O. U., & Sharapova, M. B. (2021). Modern views on the pathogenesis of uveitis in children. Economy and society. [Холматова, Ё. Н., Хамдамов, Х. О., Бадридинов, О. У., & Шарапова, М. Б. (2021). Современные взгляды на патогенез увеитову детей. Экономика и социум], (11-2 (90)), 620-624.
7. National Blood Transfusion Services Nigerian National Blood Policy: Revised November 2005 Abuja: Federal Ministry of Health; 2006 Available from:

http://www.fmh.gov.ng./images/PolicyDoc/FMOH_Nigerian_National_Blood_Pol...

Accessed December 22, 2009

8. World Health Organization Management of blood transfusion services [webpage on the Internet] Geneva: World Health Organization; 1990 Available from: www.who.int/iris/handle/10665/39295 Accessed November 22, 2009

9. van Jaarsveld H, Pool GF. Beneficial effects of blood donation on high density lipoprotein concentration and the oxidative potential of low density lipoprotein. *Atherosclerosis*. 2002;161(2):395–402. - PubMed

10. Bharadwaj RS. A study of lipid profiles among male voluntary blood donors in Chennai city. *Indian J Community Med*. 2005;30(1):16–17.

11. Meyers DG, Strickland D, Maloley PA, Seburg JK, Wilson JE, McManus BF. Possible association of a reduction in cardiovascular events with blood donation. *Heart*. 1997;78(2):188–193. - PMC - PubMed

DOIMIIY QON TOPSHIRUVCHI DONORLARDA LIPOPROTEIDLAR ALMASHINUVINI O'RGANISHNING DOLZARBLIGI

Xamroqulov To'liqin Zokirovich

FJSTI "Patologik fiziologiya va patologik anatomiya" kafedrası mudiri

Badriddinov Oyatillo Usmonjon o'g'li

FJSTI "Patologik fiziologiya va patologik anatomiya" kafedrası assistenti

Kirish: Bir qancha tadqiqotlarda muntazam qon topshirish lipid profili parametrlarning pasayishi bilan bog'liq ekanligini ko'rsatdi. Lipid profilini baholash - bu shaxsni baholashning qabul qilingan usuli

koronar yurak kasalligi xavfini aniqlashga yordam beradi. Muntazam qon topshirish temir zahiralari kamaytirishi mumkin va bu o'z navbatida lipid peroksidatsiyasini kamaytiradi. Bu tadqiqot qon donorligining lipid profiliga ta'sirini aniqlash uchun amalga oshiriladi.

Materiallar va usullar: 76 nafar ishtirokchi qatnashishga rozi bo'ldi va ro'yxatga olindi,

В связи с этим использование в учебном процессе фантомного и симуляционного обучения студентов является требованием времени. Наиболее оптимальным и эффективным методом такого обучения считается создание учебно-симуляционных центров, в составе которых будут такие кластеры как: «экстренная медицина», «уход за больными», «педиатрия - неотложная помощь, уход за детьми», «анестезиология и реанимация», «хирургия и лапароскопия», «акушерство и гинекология». Создание таких кластеров даст возможность отработки практических навыков по нескольким направлениям специализации врачей.

Эффективность симуляционного метода обучения изучена на примере американского опыта, где этот метод начал практиковаться с 1980-х годов. Кроме того, проведены исследования результативности и востребованности симуляционного метода обучения на примере российских медицинских вузов. Российские специалисты считают целесообразным внедрение симуляционного обучения в систему подготовки медицинских кадров, при этом, особо акцентируют внимание на необходимость создания нормативно-правовой базы и финансового обеспечения этих программ.

Так, специалистами Рязанского государственного медицинского университета в 2020 году проведено анкетирование среди студентов 5-курса лечебного факультета, прошедших обучение на занятиях «эндоскопия желудочно-кишечного тракта» с использованием виртуального эндоскопического симулятора. В ходе анкетирования установлено, что 95%

студентов считает, что симуляционные занятия по эндоскопии позволили им лучше усвоить теоретический материал по этой дисциплине, а также считают, что практические навыки, приобретенные ими в ходе обучения в симуляционном центре будут им полезны в их дальнейшей врачебной деятельности.

Результаты анкетирования показали необходимость преподавания диагностических дисциплин с позиции лечебных специальностей (терапия, хирургия и др.).

В целом, мировая практика и проводимые исследования показывают необходимость проведения в медицинских вузах занятий с использованием высокотехнологичных симуляторов, которые позволят лучше усвоить студентами преподаваемый теоретический материал не только по этой дисциплине, но и по смежным специальностям. Внедрение в образовательный процесс подготовки медицинских кадров симуляционного обучения даст возможность дальнейшей модернизации системы профессиональной подготовки медицинских работников в Республике Узбекистан. При этом, необходимо усовершенствовать нормативно-правовую базу и проработать вопросы финансового обеспечения программ в этом направлении.

О РОЛИ СИМУЛЯЦИОННОГО ОБУЧЕНИЯ В МЕДИЦИНСКИХ ИНСТИТУТАХ

А.Джурабаев

Ферганский медицинский институт общественного здоровья

Развитие медицинской науки на современном этапе требует от медицинских образовательных организаций пересмотра взглядов на процесс обучения студентов и акцентирование внимания на профессионализме будущего медицинского работника. В медицинской практике подготовка и обучение врачей осуществляется в течении многих тысячелетий. Расширение знаний и развитие научно-технического прогресса создали предпосылки для усовершенствования процесса подготовки медицинских кадров. Так, в последнее время создаются различные манекены, муляжи, компьютерные программы и роботы, которые дают возможность симулировать пациентов, а также производить сложные операции на виртуальном пациенте.

Качество медицинской помощи и качество жизни пациентов должны лежать в основе оценки как профессиональной деятельности отдельных специалистов и учреждений, так и уровня здравоохранения в целом. К сожалению, на сегодняшний день пациенты продолжают страдать от ошибок врачей. Так, согласно статистическим данным в США в год из-за врачебных ошибок умирает около 98 тыс. человек. В Узбекистане такой официальной статистики нет, но проблема формирования практических компетенций врача стоит также достаточно остро.

Существующая на сегодняшний день система клинического медицинского образования не способна в полной мере решить проблему качественной практической подготовки врача. Основными проблемами в этом вопросе являются отсутствие непрерывной обратной связи между учащимся и педагогом, невозможность практической иллюстрации всего многообразия клинических ситуаций, а также морально-этические и законодательные ограничения в общении студентов с пациентами. В связи с этим, ключевой задачей современного среднего специального, высшего и последиplomного медицинского образования является создание условий для развития у обучающихся широкого спектра компетенций и прочно закрепленных практических навыков без риска нанесения вреда пациенту. Сюда относится развитие способности быстрого принятия решений и безупречного выполнения ряда манипуляций или вмешательств, особенно при неотложных состояниях.

Тренажеры, используемые в симуляционном обучении, спасают жизнь пациентам, позволяя совершить неизбежные ошибки в период обучения не на живых людях, благодаря чему помогают стать хорошим специалистом каждому. Для этого важно понимать, что целью получения максимальной пользы от занятий с имитацией реальных ситуаций обучающимся необходимо проникнуться сценарием и действовать, как если бы перед ними был не тренажер, а настоящий пациент. Задача преподавателя всемерно способствовать тому, чтобы создавать атмосферу серьезного и ответственного отношения к занятию у каждого обучающегося.

Все это дает большие возможности медицинскому образованию в работе над повышением качества оказания медицинской помощи, уменьшением числа возможных осложнений и врачебных ошибок, а также позволяет проводить аттестацию студентов и врачей, объективно определяя уровень их профессиональной квалификации. Это особенно актуально сегодня в условиях работы частных медицинских компаний, поскольку имеющийся уровень профессиональной подготовки специалистов зачастую не удовлетворяет требованиям, предъявляемым к ним современными медицинскими центрами.

В целом, внедрение в учебный процесс подготовки медицинских кадров на всех этапах непрерывного медицинского образования обучающихся симуляционных курсов будет способствовать снижению врачебных ошибок, уменьшению осложнений и повышению качества оказания медицинской помощи населению.

РАЗРАБОТКА ПЕРСОНАЛИЗИРОВАННОЙ ХИРУРГИЧЕСКОЙ ТАКТИКИ ПРИ ОСТРОМ ХОЛЕЦИСТИТЕ У ПАЦИЕНТОВ С ПОВЫШЕННЫМ ОПЕРАЦИОННО-АНЕСТЕЗИОЛОГИЧЕСКИМ РИСКОМ

Арзиев А.И.

Бухарский государственный медицинский институт
Научный руководитель - к.м.н., доцент Арзиев И.А.

Острый холецистит является одним из наиболее распространенных заболеваний брюшной полости, особенно среди лиц пожилого и старческого возраста с высоким операционно-анестезиологическим риском. В то же время летальность при тяжелых формах острого холецистита остается очень высокой и достигает 12-15%. Особенностью состояния почти всех пациентов пожилого и старческого возраста является наличие сопутствующей патологии, часто системного характера. Основное место занимает патология сердечно-сосудистой системы, 50-60% больных имеют в анамнезе заболевания дыхательной системы. Более чем у половины больных в анамнезе имеется сахарный диабет, многие (30-60%) имеют лишнюю массу тела, часто III-IV степени.

Цель исследования. Улучшение результатов лечения больных острым холециститом с высоким операционно-анестезиологическим риском путем выбора метода хирургической коррекции с приоритетным применением миниинвазивных вмешательств.

Материал и методы. Проанализированы результаты обследования и лечения 204 пациента с острым холециститом, находившихся на лечении в хирургических отделениях многопрофильной клиники СамГМУ, оперативные вмешательства выполнены малоинвазивными методиками. 53 больным проводились пункционно-дренирующие вмешательства под УЗ-наведением из них 15 (7,3%) произведена чрескожная-чреспеченочная пункция желчного пузыря (ЧЧПЖП) 38 (18,6%) – чрескожно-чреспеченочное дренирование желчного пузыря (ЧЧДЖП), у 105 осуществлены лапароскопические операции, Для нивелирования ЛХЭ мы выполняли при минимальном давлении 6-8 мм рт. ст. последствий пневмоперитонеума во время операции (как инфаркт миокарда, тромбоэмболия легочной артерии, дыхательная недостаточность) не наблюдалось. У 46 – холестэктомия (ХЭ) из минилапаротомного доступа. При выполнении минилапаротомных операций использовали специализированный билиарный набор инструментов «Мини-ассистент». Критериями включения в исследование считали отсутствие положительного эффекта от проведения консервативной терапии в течение 48 часов, операционно-анестезиологического риска (класса P₂, P₃, P₄ по классификации ASA), при баллах 3-4 его вероятность согласно индексу Charlson в данной возрастной категории составляет 52%, что подтверждает высокий операционно-анестезиологический риск.

Результаты и обсуждение. У пациентов с острым холециститом информативность диагностики с дополнением УЗИ в режиме серой шкалы цветовой УЗДГ увеличивалась до 92,3%, что позволяло ограничить применение дорогостоящих рентгенорадиологических методов исследования. К III классу отнесены 40,7% пациентов, 31,8% пациентов соответствовали IV классу риска. Следовательно, с учетом полиморбидности большинство (76,2%) пациентов были отнесены к классам P₃ и P₄. Эндоскопическая папиллотомия в виде ЭПСТ проведена 12 больным. Преобладали пациенты старческого возраста по шкале ASA P₃ и P₄. ЭПСТ осуществляли при наличии механической желтухи на почве холедохолитиаза. Эта процедура была вторым этапом после ЧЧДЖП (9), ЧЧПЖП (3).

Выводы. Таким образом, у больных пожилого и старческого возраста с высоким операционно-анестезиологическим риском применение малоинвазивных пункционно-дренирующих, лапароскопических и эндоскопических методик с учетом операционно-анестезиологического риска согласно ASA, APACHE II и индекса коморбидности Charlson позволяет своевременно выполнить необходимые лечебные процедуры, снизить количество послеоперационных осложнений с 19,7 до 6,4%, послеоперационную летальность с 6,7 до 1,9%, а также сократить сроки стационарного лечения в среднем на 5,5 койко-дня.

ABDOMINAL JARROHLIK AMALIYOTIDAN SO'NG BEMORLAR OVQATLANISHI

X.Xojimatov, Bahodirova K.

Abdominal jarrohlik amaliyotidan so'ng bemorlar ovqatlanishini yaxshilash va tiklanish jarayonini tezlashtirish uchun to'liq yondoshuv talab etiladi. Ushbu jarrohlikdan so'ng ovqatlanish rejasini tuzishda bir qator omillarni hisobga olish zarur, jumladan, bemorning umumiy sog'lig'i, jarrohlik turi, va sog'ayishning hozirgi bosqichi.

Abdominal jarrohlik (masalan, appendektomiya, cholecystectomy, laparoskopik operatsiyalar) dan so'ng ovqatlanishni bosqichma-bosqich qayta tiklash zarur, chunki oshqozon va ichak tizimi jarrohlik amaliyotidan so'ng sezilarli darajada sezgir bo'ladi.

Birinchi kunlarda bemorlarga faqat suyuqliklar beriladi. Bu davrda oshqozon va ichak tizimi hali to'liq ishga tushmagan, shuning uchun yengil suyuq ovqatlar va suyuqliklar kerak. Suyuqliklardan toza suv, yog'siz bulyon, shirin bo'lmagan choy, jelatin, iliq shakar yoki tuz qo'shilmagan ichimliklar.

Bemorning holatiga qarab, oddiy oziq moddalar (masalan, sutli yoki yogurtli ichimliklar) qo'shilishi mumkin, ammo ular yengil va hazm qilish oson bo'lishi kerak. Pishirilgan yoki bug'langan ovqatlardan yengil, pishirilgan, bug'langan yoki qaynatilgan ovqatlar qo'shilishi mumkin. Pyure, sabzavotlar, tuxum, pishirilgan go'shtlar, baliq va kam yog'li sut mahsulotlari bo'lishi kerak. Suyuqliklar miqdorini oshirish, lekin qahva va gazli ichimliklardan saqlanish kerak.

Bir hafta o'tgach, bemorlar no'xat, loviya, bug'doy kabi to'liq ovqatlarni qabul qilishlari mumkin, ammo ular hali ham oson hazm qilinadigan shaklda bo'lishi kerak. Shuningdek, past-yog'li sut mahsulotlari, yengil non va qatiq kiritilishi mumkin.

Jarrohlikdan keyingi davrda bemorning umumiy salomatligi va jarrohlikni qanday o'tkazganiga qarab, ovqatlanish turli bosqichlarda o'zgaradi.

Proteinlar organizmning tiklanish jarayonini tezlashtiradi, chunki ular yaralar tiklanishini, immun tizimining faoliyatini va mushaklarning tiklanishini qo'llab-quvvatlaydi.

Oqsil manbalari: Tuxum, go'sht, baliq, sut, pishloq, yog'siz yogurt, tovuq go'shti.

Kundalik oqsil miqdori: Odatda, bemorlarga kuniga 60-90 gramm oqsil talab qilinadi, ammo bu shifokorning maslahatiga ko'ra o'zgartirilishi mumkin.

Abdominal jarrohlikdan so'ng suyuqlikni ko'p miqdorda iste'mol qilish zarur, chunki bu tananing dehidratsiyaga uchrashining oldini oladi va oshqozon-ichak tizimining tiklanishini qo'llab-quvvatlaydi.

Jarrohlikdan keyingi dastlabki kunlarda yog'lar va karbongidratlar miqdorini cheklash muhim. Ular oshqozon va ichakni qiyinlashtirishi mumkin, shuning uchun ularni sezilarli darajada kamaytirish lozim.

Abdominal jarrohlikdan so'ng to'g'ri ovqatlanish davolanish jarayonini tezlashtirish, asoratlarning oldini olish va bemorning umumiy salomatligini yaxshilash uchun juda muhimdir. Ovqatlanish rejasini, shifokorning tavsiyalariga muvofiq ravishda, bemorning sog'liq holatiga va jarrohlik turiga mos ravishda moslashtirilishi kerak.

JARROHLIK AMALIYOTIDAN KEYIN BEMORLARNI MEVA VA SABZAVOTLARGA BO'LGAN EHTIYOJI

X.Xojimatov, G.Abdullajonova

Jarrohlik amaliyotidan keyin bemorlarning meva va sabzavotlarga bo'lgan ehtiyoji juda muhim, chunki ular organizmning tiklanishini qo'llab-quvvatlash, immun tizimini kuchaytirish, hazm qilishni yaxshilash va zarur vitaminlar bilan ta'minlashda katta rol o'ynaydi. Meva va sabzavotlar o'zining boy vitaminlar, minerallar, tolalar va antioksidantlar bilan sog'liq uchun juda foydalidir. Ammo abdominal jarrohlikdan keyin bu oziq-ovqatlarni qanday tanlash va qachon qo'llash muhimligini tushunish zarur.

C vitamini jarrohlikdan keyin yaralarning tez tiklanishini qo'llab-quvvatlaydi va immun tizimini kuchaytiradi. Meva va sabzavotlar C vitaminiga boy, masalan, apelsin, limon, kivi, brokkoli va qalampir mavjud.

A vitamini immun tizimi va teri salomatligi uchun zarur. U sabzavotlarda, ayniqsa, sabzi, ismaloq, qalampir, va yashil bargli sabzavotlarda ko'p uchraydi.

B6 va B12 vitaminlari metabolizmni qo'llab-quvvatlaydi va asab tizimi uchun foydalidir. Mevalar va sabzavotlar, ayniqsa, banan, avokado, brokkoli va sholg'omda mavjud bo'ladi.

Jarohat tiklanishida K vitamini muhim rol o'ynaydi, chunki u qonning qaynashini tezlashtiradi. K vitamini ko'p bo'lgan sabzavotlar — ismaloq, karam, brokkoli va marul.

Brokkoli, karam, sholg'om, ismaloq kabi sabzavotlar tolaga boy va hazm qilishni yaxshilaydi.

Mevalar, ayniqsa, olma, nok, marula va qulupnay tolalar va suyuqliklar manbalaridir, ular ichaklarni faollashtirishda yordam beradi.

Antioksidantlar tanadagi zararli erkin radikallarni zararsizlantiradi va yallig'lanishni kamaytiradi, bu jarrohlikdan keyin tiklanish jarayonini tezlashtiradi. Mevalar va sabzavotlar boy antioksidantlarga ega:

Yangi mevalar, masalan, qulupnay, mavi rezavorlar (yong'oq, zaitun, mavi uzum), kivi, va anor ko'p miqdorda antioksidantlar (masalan, flavonoidlar) o'z ichiga oladi.

Pomidor, qalampir, brokkoli va ismaloqda ham ko'plab antioksidantlar mavjud. Jarrohlikdan keyingi dastlabki kunlarda bemorning oshqozon-ichak tizimi sezgir bo'lishi mumkin, shuning uchun meva va sabzavotlarni yengil va hazm qilish oson shaklda tanlash zarur. Mevalar va sabzavotlar quyidagi shakllarda iste'mol qilinishi mumkin. Qulupnay, banan, olma (qaynatilgan yoki pyure holida), shaftoli, kivi.

Kartoshka (pyure holida), sabzi, brokkoli (bug'langan yoki pyure), ismaloq (bug'langan yoki qaynatilgan).

Jarrohlikdan keyin ichak tizimi faoliyatining sekinlashishi mumkinligi sababli, ko'p hollarda sabzavotlarni pyure holatida yoki bug'langan shaklda iste'mol qilish tavsiya etiladi. Bu oshqozon va ichakni haddan tashqari yuklamasdan, foydali elementlarni oson hazm qilishni ta'minlaydi.

Jarrohlikdan keyingi dastlabki kunlarda meva va sabzavotlarni toza va yangi holatda iste'mol qilish kerak. Buzilgan yoki konserva mahsulotlari (masalan,

«Anatomiya va jarrohlikda fanlararo yondashuvlar: fundamental tadqiqotlardan klinik amaliyotgacha»

konservalangan sabzavotlar) kamroq foydali bo'lishi mumkin, chunki ular ko'pincha qo'shimcha tuz yoki shakarni o'z ichiga oladi.

Meva va sabzavotlarni og'ir va yog'li ovqatlar bilan birga iste'mol qilishdan saqlanish kerak, chunki bu oshqozon tizimi uchun qiyin bo'lishi mumkin. Meva va sabzavotlarni yengil, oqsilga boy ovqatlar (masalan, tovuq yoki baliq) bilan birga iste'mol qilish tavsiya etiladi.

Jarrohlik amaliyotidan keyin meva va sabzavotlar bemorning tiklanishiga yordam beradi. C vitamini, A vitamini, tolalar, antioksidantlar va boshqa foydali moddalar o'zining muhim rolini o'ynaydi. Biroq, ularni yengil va oson hazm bo'ladigan shaklda qo'llash zarur, shuning uchun boshlang'ich bosqichda qaynatilgan yoki pyure holatida sabzavotlar va mevalarni tanlash maqsadga muvofiqdir.

ULTRATOVUSH TEKSHIRUVINING AYOLLAR REPRODUKTIV SALOMATLIGINI BAHOLASHDAGI DIAGNOSTIK SAMARADORLIGI

Abdullayeva Shoxsanamxon Salimjon qizi

Fargʻona jamoat salomatligi tibbiyot instituti “Davolash ishi” yoʻnalishi talabasi
Fargʻona, Oʻzbekiston

Annotatsiya: Ultratovush tekshiruvi (UTT) homiladorlik monitoringi va ayollar reproduktiv salomatligini baholashdagi ahamiyati tahlil qilinadi. UTT homilaning rivojlanishini kuzatish, tugʻma nuqsonlarni aniqlash, yoʻldosh salomatligini baholash va homiladorlik bilan bogʻliq asoratlarni aniqlashda ionlovchi nurlanishsiz samarali diagnostika vositasi sifatida tavsiflanadi. Tadqiqot doirasida transabdominal va transvaginal ultratovush, shuningdek, Doppler tasvirlash usullari qoʻllanilib, ularning bachadon va tuxumdon patologiyalarini aniqlashdagi diagnostik samaradorligi baholandi. Bemorlarning tibbiy hujjatlari va laboratoriya testlari natijalari ultratovush tasvirlari bilan solishtirildi. Natijalar ultratovush texnologiyalarining ayollar salomatligi diagnostikasidagi muhim oʻrnini tasdiqlab, ushbu sohada texnologik rivojlanish va tibbiyot xodimlari uchun qoʻshimcha bilimlar zarurligini koʻrsatdi.

Kalt soʻzlar: ultratovush, reproduktiv salomatlik, MRT, KT, transabdominal, transvaginal, Doppler, nurlanish.

Kirish. Ultratovush tekshiruvi keng qoʻllaniladigan tasvirlash usuli boʻlsa-da, uning reproduktiv sogʻliq muammolarini aniqlash samaradorligi shifokorning tajribasi, uskunaning sifati va bemorning jismoniy holatiga yaʼni semizlik, anatomik oʻzgarishlariga bogʻliq boʻladi. Koʻplab ginekologik kasalliklarni baholashda samarali boʻlsa ham, endometrioz, tuxumdon saratonining boshlangʻich bosqichlari yoki kichik bachadon anomaliyalarini aniq tashxislashda cheklovlarga ega. Bunday hollarda MRT yoki KT kabi qoʻshimcha tasvirlash usullari talab etiladi. Anatomik tuzilmalarni baholash uchun juda foydali, ammo reproduktiv tizimning gormonal disbalans kabi funksional buzilishlarini aniqlashda esa qoʻshimcha biokimyoviy tahlillar talab qilinadi. Ayollarning reproduktiv salomatligini baholashda ultratovush tekshiruvining diagnostik samaradorligi zamonaviy tibbiyot amaliyotida muhim ahamiyatga ega. Ultratovush tekshiruvi invaziv boʻlmagan, keng tarqalgan va iqtisodiy jihatdan maqbul tasvirlash usuli boʻlib, ginekologik va akusherlik kasalliklarini tashxislash, monitoring qilish va davolashda muhim rol oʻynaydi. Uning diagnostik aniqligini, cheklovlarini va texnologik rivojlanishini oʻrganish ayollar salomatligini yaxshilash uchun muhimdir.

Asosiy qism. Ultratovush tekshiruvi homilaning rivojlanishini kuzatish, tugʻma nuqsonlarni aniqlash, yoʻldosh salomatligini baholash va homiladorlik bilan bogʻliq

asoratlarni, masalan, ektopik homiladorlik va tushish xavfini aniqlash uchun muhim vositadir. MRT yoki rentgen tasvirlash texnologiyalaridan farqli o'laroq, ultratovush tekshiruvchi nurlanishga sabab bo'lmaydi.

Ayniqsa, ayollar salomatligida erta tashxis qo'yish va profilaktik parvarishga qaratilgan e'tibor oshib borayotgani tufayli dolzarbdir. UTT tuxumdon va bachadon tuzilishini baholash, follikulyar kuzatuv hamda homiladorlik bilan bog'liq asoratlarni aniqlash imkonini beradi, shu bilan birga, bemorlarni ionizatsiyalovchi nurlanishga duchor qilmaydi. Shuningdek, Doppler tasvirlash va 3D/4D ultratovush texnologiyalarining rivojlanishi tashxis aniqroq qo'yilishiga yordam bermoqda, bu esa UTTni akusherlik va ginekologiyada ajralmas diagnostika usuliga aylantirmoqda. UTT diagnostik samaradorligini o'rganish ushbu usulning imkoniyatlarini chuqurroq tushunish imkonini berib, tibbiy bilimlarni rivojlantirish, klinik amaliyotni takomillashtirish va reproduktiv salomatlik diagnostikasida dalillarga asoslangan yondashuvlarni qo'llab-quvvatlash uchun muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqot ishtirokchilari ultratovush tekshiruvidan o'tayotgan reproduktiv yoshdagi homiladorlik monitoringi va baholash uchun ultratovush tekshiruvchi talab etiladigan homilador ayollar olindi. Ultratovush apparatlari, reproduktiv a'zolaridagi qon oqimini baholash uchun Doppler ultratovush uskunasi, bachadon patologiyalarini baholash uchun fiziologik eritma infuziyasi bilan ultratovush tekshiruvlaridan foydalanildi. Bemorlarning tibbiy hujjatlari va ultratovush hisobotlarida standart klinik baholash shakllari, qo'shimcha diagnostik usullar natijalari bilan solishtirma ma'lumotlardan foydalanildi.

Tadqiqot uchun jami **500** nafar 18 yoshdan 45 yoshgacha ayollar olindi. Ultratovush tekshiruvining eng keng tarqalgan ko'rsatkichlari quyidagilar bo'ldi:

- Polikistik tuxumdon sindromi (PCOS) –**17%**
- Bachadon miomalari –**15%**
- Tuxumdon kistalari –**20%**
- Endometrioz –**9%**
- Bepushtlik bilan bog'liq baholash –**7%**
- Homiladorlik monitoringi va asoratlari –**32%**

95% holatlarda ultratovush natijalari MRI yoki gistopatologik tekshiruvlar bilan tasdiqlandi, bu uning yuqori ishonchliligini ko'rsatadi. **5%** bemorlarda tasvir sifati pasayib, tashxis qo'yish samaradorligi pasaydi. Ultratovush tekshiruvida umumiy to'ssohasini tasvirlash uchun transabdominal ultratovush, tuxumdon, bachadon va endometriy holatini batafsil baholash uchun transvaginal ultratovush, tuxumdon kistalari, o'smalar va homiladorlik bilan bog'liq asoratlarni baholash uchun Doppler ultratovush apparatidan olingan ma'lumotlar bo'yicha tahlil qilindi. Bemorning tibbiy tarixi, simptomlari va laboratoriya testlari bilan solishtirish kasallikni baholash uchun gormonal tahlillar olib borildi. Ushbu natijalar ultratovushni ayollar reproduktiv

salomatligi uchun asosiy diagnostik vosita sifatida ahamiyatini ko'rsatib, kelgusida texnologik rivojlanish va tibbiyot xodimlari uchun qo'shimcha bilimlar zarurligini ko'rsatdi.

Xulosa. Ayollar reproduktiv salomatligini baholashda ultratovush diagnostikasining samaradorligini tekshirishda natijalar shuni ko'rsatdiki, ultratovush reproduktiv tizimdagi strukturaviy o'zgarishlarni aniqlashda yuqori sezgirlik va o'ziga xoslikka ega. Reproductiv sog'liqni saqlashda xavfsiz, tejamkor va keng tarqalgan muhim vosita ekanligini tasdiqlaydi. Tibbiyot amaliyotini dalillarga asoslangan yondashuv bilan boyitishga hamda ultratovushni ginekologik va akusherlik tibbiyotida yanada kengroq qo'llashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alyavi, A. L., Arnopolskaya. (2008). *Klinik elektrokardiografiya asoslari*. Toshkent.
2. Gadayev, A. (2002). *Umumiy amaliyot vrachlari uchun ma'ruzalar to'plami*. Toshkent.
3. **Mikhaylov, A. V., Romanovskiy, A. N., Volchyenkova, V. E., Kashtanova, T. A., Kuznetsov, A. A., Shlykova, A. V., Kyanksep, I. V., & Savel'eva, A. A. (2022).** Sovremennye podkhody k vedeniyu beremennosti pri monokhorial'nom monoamnioticheskom mnogoplodii [Modern approaches to pregnancy management in monochorionic monoamniotic multiple pregnancies]. *Akusherstvo i Ginekologiya*, (2), 12–19. <https://dx.doi.org/10.18565/aig.2022.2.12-19>
4. Баевский, Р.М., Берсенева А.П. (2008). Введение в донозологическую диагностику. Слово.
5. Soyibjonovna, Q. G. (2025). JISMONIY SALOMATLIK DARAJASINI BAHOLASH USULLARI VA UNI NAZORAT QILISHNING ASOSIY BOSQICHLARI. *MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH*, 4(41), 129-134.
6. Карабаев, М., Косимова, Г. С., & Сидиков, А. А. (2023). Логико-математические модели количественной оценки интегрального уровня индивидуального физического здоровья на основе адаптационного потенциала организма. *Журнал клинической и профилактической медицины*, (1), 38-45.
7. Karabaev, M., & Qosimova, G. (2023). Logical - mathematical models of quantitative assessment of the integral level of individual physical health based on the adaptive potential of the body. *E3S Web of Conferences*, 452, 07004. <https://doi.org/10.1051/e3sconf/202345207004>.

O‘TKIR QORIN SINDROMI BILAN KEHADIGAN KASALLIKLARNI O‘QITISHDA “ROLE PLAYING” METODIKASINING AHAMIYATI VA AMALGA OSHIRISH BO‘YICHA TAVSIYALAR

Mamajonov Boxadir Solijanovich¹

Botiraliyev Aziz Shukurjonovich²

Qodirov Davronbek Rusram o‘g‘li³

¹ T.f.d. professor, Andijon davlat tibbiyot instituti. Andijon sh. O‘zbekiston.

² T.f.n., Central Asian Medical University xirurgik kasalliklar kafedrası mudiri.
Farg‘ona sh. O‘zbekiston.

³ Central Asian Medical University xirurgik kasalliklar kafedrası assistenti. FJSTI
mustaqil izlanuvchisi. Farg‘ona sh. O‘zbekiston.

Tadqiqotning maqsadi. Tibbiyot ta'limida talabalarni nazariy bilim va amaliy ko'nikmalar bilan ta'minlash muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, o'tkir qorin sindromi bilan bog'liq kasalliklarni o'qitishda an'anaviy dars uslublarining samaradorligini oshirish uchun interaktiv metodlardan foydalanish zarur. «Role playing» metodikasi talabalarni hayotiy klinik vaziyatlarga moslashtirishga, ularning analitik va muloqot qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Ushbu tadqiqot mazkur metodikaning o'quv jarayoniga ta'sirini baholash va uni qo'llash bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishga bag'ishlangan.

Material va usullar. Tadqiqot materiali sifatida Central Asian Medical University davolash yo'nalishi 4-bosqich talabalari olindi. Tadqiqotda 80 nafar talaba ishtirok etdi va ular ikki guruhga ajratildi: an'anaviy o'qitish usuli bilan o'rgatilgan nazorat guruhi (40 talaba) hamda «Role playing» metodikasi asosida ta'lim olgan eksperimental guruh (40 talaba). Tadqiqot davomida interaktiv darslar, klinik stsenariylar va talabalar ishtirokidagi rolli o'yinlardan foydalanildi. Natijalar esa talabalar bilimni baholash testlari, OSCE (Objective Structured Clinical Examination) imtihonlari va talabalar fikr-mulohazalari asosida tahlil qilindi.

Natijalar va Muhokama. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, «Role playing» metodikasi asosida o'qitilgan talabalar nazorat guruhiga nisbatan ancha yuqori natijalarga erishdi. Xususan:

- Klinik holatlarni tushunish va diagnostik qaror qabul qilish qobiliyati 25% ga yaxshilandi.
- Talabalar shifokor bilan muloqot qilish ko'nikmalari va bemorga yondashuvi 30% ga oshdi.
- Dars jarayoniga bo'lgan qiziqish va faol ishtirok etish darajasi 40% ga ko'tarildi.

Olingan natijalar shuni ko'rsatdiki, tibbiyot ta'limida talabalarni faol ishtirok etishga undaydigan metodlar, jumladan, «Role playing» usuli, bilimlarni esda saqlash

darajasini oshirish va amaliy jihatdan qo'llash ko'nikmalarini rivojlantirishda samarali ekan. Ushbu metod klinik tafakkurni shakllantirishda va talabalarni kelajakdagi professional faoliyatga tayyorlashda muhim rol o'ynaydi.

Xulosa va tavsiyalar.

1. «Role playing» metodikasini o'tkir qorin sindromi bo'yicha o'qitish jarayoniga muntazam ravishda joriy etish lozim.
2. Ushbu metodikani joriy etish uchun maxsus stsenariy va klinik vaziyatlar ishlab chiqilishi zarur.
3. O'qitish jarayonida talabalarni bemor, shifokor va boshqa tibbiyot xodimlari rollariga ajratish orqali haqiqiy sharoitni yaratish kerak.
4. Metodikani yanada samarali qilish uchun video va yozma tahlillar bilan qo'shimcha mustahkamlash tavsiya etiladi.
5. Talabalarning diagnostik xatolarini tahlil qilish va ularni tuzatish orqali amaliy mashg'ulotlarni individual yondashuv asosida olib borish zarur.
6. Mazkur metodika boshqa mavzularda ham sinovdan o'tkazilib, ta'lim jarayoniga kengroq tatbiq etilishi lozim.

Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, tibbiyot ta'limida interaktiv usullardan foydalanish talabalar bilim va ko'nikmalarini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi. «Role Playing» metodikasi orqali o'qitish bemorlarni to'g'ri va samarali davolashga tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

OSHQOZON YARASI VA UNING ASORATLARI: OSHQOZON YARASINING RIVOJLANISHI BILAN BOG‘LIQ BO‘LGAN ASORATLAR

Sh.R.Karimjanova, Sh.I.Jaloliddinov

Farg‘ona Jamoat Salomatligi Tibbiyot Instituti, Farg‘ona, O‘zbekiston

Annotatsiya: Oshqozon yara kasalligi uning shilliq qavatda yara hosil bo‘lishi hisoblanadi. Oshqozon yara kasalligini kelib chiqishi nasliy, ruhiy, helicobacter pylori va nazoratsiz ayrim dorilarni uzoq muddat qabul qilish tufayli kasallik rivojlanadi, shuningdek asabiylashish, stress, chekish, (sigaret, nosvoy), no‘to‘g‘ri ovqatlanish (shiliq qavatni eroziyaga olib keluvchi va oshqozon shirasi ishlab chiqarilishini kuchaytiruvchi achiq, dudlangan, xamirli taomlar, pishiriqlar, quruq va sovuq ovqatlar, ovqatlanish muntazamligini buzilishi, qahva va boshqalar) sanaladi.

Kalit so‘zlar: Oshqozon yarasi, peptik yara, yarali kasallik, gastrointestinal qon ketish, helicobacter pylori, oshqozon-ichak muammolari, asoratlangan yara, gastrointestinal shoshilinch holatlar, oshqozon yarasi diagnostikasi, yarali bemorlarda klinik belgilari, oshqozon yarasi davolash usullari, yaradan qon ketish, oshqozon devorining zaiflashishi, yara bilan bog‘liq infeksiyalar, oshqozon yarasi oldini olish, yara oqibatlari.

Oshqozon yara kasalligi -surunkali,qaytalanuvchi,qo‘zish va remissiya davrlari almashinib keluvchi kasallik bo‘lib,uning morfologik asosi - shilliq qavatda yara hosil bo‘lishi hisoblanadi.1983-yilda Uorren va Marshall oshqozon shilliq qavatida Campilobacter pylori-grammmanfiy spiralsimon bakteriyani aniqlashdiva uni yara kasalligini asosiy sababchisi sifatida ko‘rsatishdi.Lekin kuzatuvlar natijasida mikroob sog‘lom odamlarda ham piloroduodenal yarali bemorlarda ham aniqlangan.Bundan kelib chiqadiki,uning mavjudligi bevosita yara kasalligi yuzaga kelishiga sabab bo‘lmaydi. Helikobakter pilori semiz hujayralarda gistamin sekretsiasini kuchaytiradi va oqibatida mikrosirkulyatsiya jarayoni buziladi. Bu yara kasalligi rivojlanishiga sabab bo‘ladi.Yara ko‘proq B gastritga chalingan bemorlarda kuzatiladi. Oshqozon yarasi diifuz pangastrit yoki oshqozon tanasi gastritis fondida rivojlanadi. Bunday yallig‘lanish oqibatida kuchsizlanib qolgan shilliq qavatga xlorid kislotaning me‘yoriy sekretsiasini ham salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. Aspirin, ibuprofen, naproksen kabi dorilar uzoq muddat qo‘llanganda oshqozon shilliq pardasini himoya qiluvchi prostaglandinlar sintezini kamaytirib, yaraga sabab bo‘lishi mumkin.

Yara kasalligi rivojlanishi 2 ta omilga bo‘linadi:

1.Himoya

2.Agressiv

Himoya	Agressiv
--------	----------

<p>1.Xlorid kislotasi yuqorilligi 2.Pepsin yuqorilligi 3.Helikobakter pylori me'yordan ko'p 4.Nisbiy moyillik 5.Duodeno-gastral reflyuks mavjudligi 6.Zararli odatlar</p>	<p>1.Epiteliyda regeneratsiya jarayoning me'yorida bo'lishi 2.Regionar qon aylanishning yetarli darajadaliligi 3.Antroduodenal kislotalilikni tormozlash.Shilliq qavatda mukopolisaxarid sintezining saqlanishi.</p>
--	--

Yara Joylashishiga ko'ra

- Tanasi
- Kardial qismi
- Subkardial
- Pilorik qismi
- Antral qismi

Yara turiga ko'ra

1. Yakka
2. Ko'p

Kiliniq kechishi bo'yicha

Tipik: Simptomsiz, og'riqsiz

Atipik: Og'riq sindromi bilan.

Oshqozon sekretyasiga ko'ra

Oshgan

Me'yorida

Kamaygan

Asoratlarga ko'ra qonash, perforatsiya, penetratsiya, stenoz, malignizatsiya, perivisterit.

Asoratlari.

Yaradan qon ketish. Qon ketish holati bemorlarning 10-15% da kuzatiladi.

Oshqozon yarasidan qon ketish quyidagi klinik belgilarga ega:

- Gematemesis – qusish paytida qizil yoki “qahva xushtaki” (qonning oshqozon shirasida parchalanishi natijasida) rangdagi qon ajralishi.
- Melena – qora, qattiq hidli najas, qonning oshqozon-ichak yo'llarida hazm bo'lishi natijasida yuzaga keladi.
- Qon bosimining pasayishi va bosh aylanishi – ortiqcha qon yo'qotilishi natijasida gipovolemik shok rivojlanishi mumkin.
- Teri oqarishi va zaiflik – surunkali qon ketish anemiya rivojlanishiga olib kelishi mumkin.

Tashxis

Oshqozon yarasidan qon ketishni tashxislash uchun quyidagi usullar qo'llanadi:

- Endoskopiya (EGD – ezofagogastroduodenoskopiya) – oshqozon ichki qavati va qon ketish manbalarini vizualizatsiya qilish uchun asosiy diagnostik usul hisoblanadi.
- Laborator tekshiruvlar:
 - Gemoglobin va gematokrit darajasini aniqlash – anemiya darajasini baholash uchun.
 - Koagulyatsion testlar – qon ivish xususiyatlarini baholash uchun.

«Anatomiya va jarrohlikda fanlararo yondashuvlar: fundamental tadqiqotlardan klinik amaliyotgacha»

- Qon guruhi va rezi faktorni aniqlash – shoshilinch qon quyish zarurati tugʻilgan holatlarda.
Davolash usullari
- Proton nasos inhibitori (PPI) terapiyasi – oshqozon kislotasini kamaytirish uchun omeprazol, pantoprazol kabi dorilar qoʻllaniladi.
- Gastroprotektiv dorilar – misol uchun, sukralfat yoki misoprostol shilliq qavatni himoya qiladi.
- Endoskopik gemostaz – qon ketish manbasini toʻxtatish uchun elektrokoagulyatsiya, kliplash yoki adrenalinning bevosita yuborilishi qoʻllaniladi.
Jarrohlik davolash

Agar qon ketish konservativ usullar bilan nazorat ostiga olinmasa, quyidagi jarrohlik usullari qoʻllaniladi:

- Gastroduodenal arteriyaning bogʻlanishi – shikastlangan qon tomiri klamplanadi yoki tikiladi.
- Yaraning eksizyon qilinishi – oshqozon devorining zararlangan qismi olib tashlanadi.
- Transkateter embolizatsiya – angiografik usul bilan qon ketayotgan tomirni yopish.

Perforatsiya-yaraning teshilishi, oshqozon yarasida qon ketishdan keyingi koʻp uchraydigan asorat boʻlib, taxminan 5-15% bemorlarda uchraydi. Bunda oshqozon teshilib oziq qoringa chiqib, ogʻriq yuzaga keladi. 20-40 yoshli erkaklarda koʻp uchraydi. Oshqozon yarasi orqa devorda joylashganda baʼzi bemorlarda uning atipik teshilishi kuzatiladi. Bunda ovqat qorin pardasi ortidagi boʻshliqqa tushib absess yoki flegmona hosil boʻlishiga sabab boʻladi.

Klinik belgilari

Oshqozon yarasi perforatsiyasining asosiy klinik belgilari quyidagilardan iborat:

- Qorin sohasida keskin, toʻsatdan paydo boʻladigan «pichoq urilgandek» ogʻriq
- Qorin mushaklarining kuchaygan tonusi (taxta qorin simptomi)
- Koʻngil aynishi va qayt qilish
- Isitma va umumiy holsizlik
- Nafas olishning tezlashishi va yurak urishining kuchayishi
- Peritonit belgilari (qorinning shishishi, kuchli ogʻriq, holsizlik)

Diagnostika

Perforatsiyani aniqlash uchun quyidagi tekshiruvlar oʻtkaziladi:

- **Klinik koʻrik** – bemorning anamnezi va simptomlari asosida dastlabki tashxis qoʻyish
- **Radiologik tekshiruvlar:**
 - Oddiy qorin rentgenografiyasi (diafragma ostida havo mavjudligi – «havo oy nuri» simptomi)
 - Kompyuter tomografiya (KT) – aniqroq tasvir olish uchun
- **Endoskopiya** – agar bemorning holati imkon bersa, ichki muhitni vizual baholash
- **Laborator tekshiruvlar** – leykotsitoz, C-reaktiv oqsil koʻrsatkichlarining oshishi.

Yaranning penetratsiyasi.

Bu oshqozon devorlaridan yarani qo‘shni a‘zolariga va to‘qimalarga tarqalishi hisoblanib, o‘rtacha 15% bemorlarda uchraydi. Oshqozon yarasini, aksariyat hollarda, oshqozon osti bezi tanasiga va kichik chavgarga, o‘n ikki barmoqli ichak piyozi orqa va yon devorlariga, oshqozon osti bezi bosh qismiga va jigar sohasiga penetratsiyasi kuzatiladi. U shakllanishi bilan og‘riq sindromining xarakati o‘zgaradi: avval ovqat qabul qilish bilan bog‘liq bo‘lgan og‘riq ma‘lum vaqtdan so‘ng yuzaga kelishi ritmi yo‘qoladi, kechasi va uzoq davom etuvchi og‘riqlar kuzatiladi. Misol uchun, penetratsiya oshqozon osti beziga bo‘lsa, og‘riq belbog‘simon xususiyatga ega bo‘ladi. Oshqozon yarasini kichik chavgarga penetratsiyasida og‘riq “o‘ng qovurg‘a ostida”, ba‘zan “o‘ng yelka va o‘mrovga yoki to‘sh suyagiga uzatiladi”. So‘nggi holatda og‘riqlar stenokardiya xurujlarini eslatadi. Piyozi sohasidan keyingi yaralar penetratsiyasida og‘riq pastga, kindik tomonga tarqaladi. Shuningdek, penetratsiyada aksariyat hollarda qorinning turli sohalarida yallig‘lanish infiltratlari aniqlanadi. Bemorlar subfebril isitmalash, chuqur bo‘lmagan leykotsitoz va umumiy formatlanishning chapga siljishi kuzatiladi. Bilirubin, transaminaza, a-amilaza, mochevina ko‘rsatkichlari yaranning qaysi a‘zoga penetratsiya bo‘lganga qarab o‘zgaradi. Oshqozon va o‘n ikki barmoqli ichak yara kasalligini penetratsiyasini yaqinlashish tashxisi EGDPS yordamida qo‘yiladi. Uning chuqur joylashgan holatlarida UTT va KT yordam beradi.

Perivisterit – oshqozon va o‘n ikki barmoqli ichak yara kasalligining asoratlardan biri bo‘lib, qorin bo‘shlig‘ining orqa devoriga yallig‘lanish jarayonining tarqalishi bilan kechadi. Ushbu holatda oshqozon va o‘n ikki barmoqli ichakning orqa devori qalinlashadi, atrof to‘qimalar bilan birikib, harakatsiz holatga keladi.

Bemorlar bel sohasida doimiy og‘riqdan shikoyat qilishadi, og‘riq orqa tomonga tarqalishi mumkin. Umumiy ahvol yomonlashadi, tana harorati ko‘tariladi, intoksikatsiya belgilarining kuchayishi kuzatiladi.

Xulosa

Oshqozon yarasi – zamonaviy tibbiyotda keng tarqalgan kasallik bo‘lib, uning etiologiyasi va patogenezini ko‘p omillarga bog‘liq. Oshqozon yarasining asoratlari orasida qon ketish, perforatsiya, penetratsiya va stenoziya eng jiddiy hisoblanadi va bemorning hayoti uchun xavf tug‘dirishi mumkin. Shu sababli, kasallikni erta tashxislash va kompleks davolash usullarini qo‘llash muhim ahamiyat kasb etadi. Diagnostikada endoskopiya, laborator va mikrobiologik tekshiruvlar yetakchi o‘rin tutadi.

Kasallikni davolashda eradikatsion terapiya, kislotani kamaytiruvchi preparatlar va parhez muhim rol o‘ynaydi. Og‘ir holatlarda jarrohlik aralashuvi talab qilinishi mumkin. Profilaktika choralari sifatida sog‘lom turmush tarziga rioya qilish, muvozanatli ovqatlanish va tibbiy ko‘riklardan muntazam o‘tish tavsiya etiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, oshqozon yarasi va uning asoratlari oldini olish va samarali davolash uchun kompleks yondashuv va aholining xabardorligini oshirish zarur. Kelajakda kasallikni davolash bo‘yicha yangi innovatsion usullarni tadqiq etish muhim ilmiy yo‘nalishlardan biri bo‘lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

«Anatomiya va jarrohlikda fanlararo yondashuvlar: fundamental tadqiqotlardan klinik amaliyotgacha»

5. Ichki kasalliklar propedevtikasi Toshkent-2012 A. Gadayev. M. Sh. Karimov. X. S. Axmedov.
6. Patologik fizalogiya Toshkent 2009. M. M. Haqberdiyev.
7. Umumiy patologiya Toshkent 2010.B.A. Magrupov.
8. Bohodur o‘g‘li, M. S., Ergashovich, Q. B., & Erkinovich, X. Z. (2023). OSHQOZON YARA KASALIKLARI VA ULARNING KELIB CHIQISH SABABLARI. Yangi O‘zbekistonda Tabiiy va Ijtimoiy-gumanitar fanlar respublika ilmiy amaliy konferensiyasi, 1(7), 71-75.



Muharrirlik kengashi anjuman materiallarining mazmuniga mas'ul emas. Ilmiy to'plamlar mualliflar tomonidan topshirilgan original holatda chop etilmoqda.

* * *

Редакционный совет не несет ответственности за содержание материалов конференции. Материалы публикуются в соответствии с оригиналами авторских текстов.